O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

KOMILJON MIRZAYEV

SOZANDALAR ANSAMBLI

5151600 – Xalq ijodiyoti (ashula va raqs)
ta’lim yo‘nalishi boyicha o‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2020
«NAVRO‘Z» NASHRIYOTI

KBK: 82.3(5O‘zb)
M 30
UO’K: 755.82.24.10

K.Mirzayev // SOZANDALAR ANSAMBLI
o‘quv qo‘llanma – T:. «Navro‘z» nashriyoti, 2020, 140 bet.

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5151600-Xalq ijodiyoti (ashula va raqs) ta’lim yo‘nalish ixtisosligining sozandalar ansambli sinfi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda milliy musiqamiz va raqs san’ati rivoji uchun salmoqli hissa qo‘shgan mohir sozanda bastakor O‘zbekiston xalq artisti Baxtiyor Aliyevning “Bahor” ansamblida ijro etilgan asarlaridan namunalar keltirilgan.

Mas’ul muharrir:

S.T.TURATOV — O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.b.

Taqrizchilar:

R.Q.QOSIMOV — O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi professori.

O‘.G‘.TOSHMATOV — O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi mudiri, professor.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 9 fevraldagi 133-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-602-10-6

© K.Mirzayev
© «Navro‘z» nashriyoti, 2020

KIRISH

Mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Xalqimizning ma’naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimizni tarixiy ilmiy-madaniy meroslarimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosi bitmas tuganmas xazina. Ma’lumki ma’naviy merosimiz mazmunida san’at alohida o‘rin tutadi. Zero, san’at inson qalbini go‘zalikka chorlaydi, nafosatga undaydi, nozik his tuyg‘ularining barq urib rivojlanishiga ko‘mak beradi, ma’naviy dunyosini boyitadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida “Ma’naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san’at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug‘ san’atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to‘g‘risida” alohida to‘xtalib o‘tdi.[1]

O‘quv qo‘llanmaga asosan Respublikamizda faoliyat yuritgan hamda hozirgi kunda faoliyat yuritib kelayotgan ansambl jamoalari haqida kerakli ma’lumotlar kiritilgan. Jumladan, O‘zbekiston xalq artisti, bastakor Baxtiyor Aliyev yozgan asarlar notalashtirilib ushbu qo‘llanmadan joy olgan bo‘lib, milliy musiqiy merosni, mumtoz ijrochilikni yanada mukammal va chuqur o‘rganish, ijrochilik uslublarini egallash hamda targ‘ib qilish masalalarini yoritadi. Yoshlar orasida jamoa ijrochilikka bo‘lgan qiziqishni qondirish maqsadida badiiy havaskorlik ishlarini tashkil etish yo‘llari o‘rganiladi.

Sozandalar ansamblida ijro etuvchi sozandalar albatta o‘zining ijro etayotgan cholg‘usining kelib chiqish tarixi, sozlanishi, diapazoni va

[1] 03.08.2017 y. Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan

qolgan tarkibiga kiruvchi barcha cholg‘ular haqida bilimlarga ega bo‘lishi lozim deb o‘ylayman. Qo‘llanmada ansambl tarkibiga kiruvchi barcha cholg‘ular haqida ma’lumotlar keltirilib o‘tilgan.

Sozandalar ansamblida ijrochilar cholg‘u sozlash, cholg‘ular turini aniqlash va ijro malakalarini egallashi, talabalarning guruhli cholg‘u ijrochiligidagi mahoratini oshirish ustida muntazam mashq qilish, guruhli cholg‘u ijrochiligida hududiy uslublardan foydalanib ijro qilish yo‘llari, guruhli cholg‘u ijrochiligida milliy bezaklarning ahamiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

Talabalar jamoa ijrochiligida ansambl bo‘lib ijro etish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantiradilar hamda guruhli cholg‘u ijrochiligiga aloqador turli davrlarda yaratilgan musiqa asarlarini tahlil va tavsif etish, guruhli cholg‘u ijrochiligining amaliy jihatlarini o‘rganish, ularga aloqador manbalarni hozirgi ko‘rinishlari bilan taqqoslash orqali ijro farqlarini o‘zlashtiradilar.

Mazkur kitobdan ansambl sinfi darsi o‘tiladigan barcha yo‘nalishlarda o‘quvchi talabalar foydalanishi mumkin.

Ansambl sinfi o‘quv qo‘llanmasiga kiritilga asarlarning xammasi Baxtiyor Aliyev asarlari hisoblanadi. Bu asarlarning hammasi ham notaga shu vaqtgacha tushirilmagan edi. Asarlarning aynan sozandalar ansambliga xosligi tufali asarlarni nota yozuviga tushirib talabalarga o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanishi uchun xarakat qildik. Shu bois bastakorning ijodiy hayot yo‘li haqida gapirib o‘tishimiz lozim deb o‘ylayman.

Ko‘p yillar “Bahor” ansamblida ijod qilgan, O‘zbekiston xalq artisti, “Mehnat shuxrati” ordeni sohibi moxir sozanda Baxtiyor Aliyev Toshkentboyevich 1938-yilning 26-mayida Toshkentning “Qashqar” mahallasida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Otasi Aliyev Toshkentboy aka o‘z davrining ziyoli qatlamiga mansub bo‘lib, ko‘p yillar davomida qishloq xo‘jaligi boshqaruvida rahbar va keyinchalik hokimlik idoralarida faoliyat olib borganlar. Onasi Aliyeva Qunduzxon aya har tomonlama namunali ayol, farzandlari kamoli uchun jonkuyar ona edi. Qunduzxon aya oila parvar bo‘lishi bilan bir qatorda, jamiyatda ham o‘z o‘rniga ega ayol bo‘lgan. O‘qituvchi deb ataluvchi sharafli kasbni boshini tutib, ko‘p yillar davomida rus tili va musiqa fanidan o‘rta maktabda yosh avlodga saboq

berib kelgan. Mana shunday namunali ota-ona parvarishidakamol topgan Baxtiyor Aliyev hayotda o‘z o‘rnini topishga qiynalmadi. Onasi farzandining san’atga bo‘lgan qobilyatini erta payqab, ilk musiqa savodini o‘zi berdi. Maktabga chiqmasidanoq kichik-kichik xalq kuylarini kuylatar, bolalarcha jarangdor tovushiga kichik avjli ashulalarni nola bilan kuylashni mashq qildirar edi.

Baxtiyor Aliyevning bolalik yillari urush davrlariga va urushdan keying qiyinchilik yillariga to‘g‘ri keladi. Ota-onasi ziyolilar qatlamiga mansub bo‘lganligi uchun, musibatli kunlarda xalqning koriga yaradi. Baxtiyor Aliyev maktabga 6 yoshidan boradi. Tengdoshlari orasida bosiq tabiatliligi, qiziquvchanligi hamda fanlarning o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi bilan ajralib turar edi. Bir kuni Ahmadjon aka ismli fizika-matematika o‘qituvchisi o‘rta maktabdan 40 ta Bolani Respublika o‘quvchilar musiqa saroyiga olib boradilar. Musiqa to‘garagiga yozilish uchun 40 nafar bolalarning barchasi bir necha bosqichli sinovdan o‘tkaziladi. Tengdoshlari orasidan faqatgina Baxtiyor Aliyev musiqa san’atiga iqtidorli deb topilib, mashg‘ulotlar olishga yoziladi. Bunday yangilikdan zavqlangan Baxtiyorning yosh qalbi olam-olam orzularga cho‘lg‘onadi. Albatta quvonchlar bejizga emas edi. Chunki mazkur musiqa saroyida qanchadan-qancha buyuk san’atkorlar ta’lim-tarbiya berardi. O‘z sohasining jonkuyar, fidoyi ustozlari, bastakorlar, mohir sozandalar qo‘lidan saboq olishdek baxtning nasib etgani, ijrochilik san’atiga bo‘lgan ishtiyoqini yanada kuchaytirdi. Bolalik xotiralarida muhirlangan Faxriddin Sodiqovning changdagi ijrosi ko‘z o‘ngida, ohangi esa quloqlarida saqlanib qolgan edi. Shuning uchun Baxtiyor Aliyev hech ikkilanmay o‘zi uchun munosib bo‘lgan cholg‘uni tanladi.

To‘garak rahbari, bastakor Sayfi Jalil qo‘lida musiqaga oid ilk saboqlarni o‘zlashtiradi. Notalarni to‘g‘ri o‘qishda, musiqa savodini shakllantirishda va ayniqsa milliy ladlarimiz asosida yaratilgan xalqchil musiqalarni ijro ettirib, yosh shogirdi ruhiga milliylikni singdirishda ustozi Sayfi Jalilning hissasi beqiyosdir. Baxtiyor Aliyev o‘rta maktabni tugatib o‘qishini Xamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi musiqa bilim yurtida davom ettiradi. Shu bilan birga temiryo‘lchilar saroyi qoshida tashkil etilgan ko‘p ovozli xalq cholg‘ulari orkestri tarkibiga changchi sozanda

bo‘lib kiradi. O‘zining chang cholg‘usida ijro etish imkoniyatlarini mana shu yerda sinovdan o‘tkazadi. Ayniqsa, orkestr tarkibida ko‘p ovozlar taralishini eshitish mahoratini rivojlantirib, ijrochilikning o‘zi uchun o‘rganilmagan qirralarini o‘zlashtira boradi.

1957 yili yangi “Bahor” nomli raqs ansambli tashkil etilayotganligi haqida keng san’at ahli orasida ovoza tarqaladi. Bu raqs jamoasi tarkibiga sozandalar ansambli tuzish va ansambl sozandalarini tanlashda saralash tanlovi o‘tkazish kuni belgilanadi. Sinovdan B.Aliyev muvofaqiyatli o‘tib ansambl tarkibiga qo‘shiladi.Shu tariqa B.Aliyev ansamblda o‘z ish faoliyatini boshlaydi. “Bahor” raqs ansambli bo‘lganligi sababli, raqslarning mazmuni chindan ham uning lirik nomiga monand kelardi.

O‘zbekiston xalq artisti, bastakor Muhammadjon Mirzayev dastavval ansamblning musiqiy ijro repertuarini boyitishga salmoqli hissa qo‘shgan. Ansambl uchun ko‘plab yozgan “Bahor valsi”, “Zavqim kelur”, “Ko‘ngil taronasi”, “Ifori Sanam”, “Farg‘onacha rez”, “Tanavor II” singari musiqalaridan zavqlangan BaxtiyorAliyevni ham ijod gulshani tomon yetakladi. Jozibador kuylardan ilhom olib, ijrochilik bilan bir qatorda bastakorlik san’atida ham o‘z mahoratini sinab ko‘rish uchun musiqiy asarlarni bastalay boshladi. Avvaliga Baxtiyor Aliyev ustoz san’atkorlarning oldida ijod namunalarini ko‘rsatishga biroz tortinchoqlik qilib, bir necha yillar davomida berkitib, ko‘plab asarlar bastalaydi. Keyinchalik 1961-yilga kelib, ijod namunalari ancha saralangan hamda boyigan yosh bastakor, atrofidagi sozandalar jamoasiga bir necha asarlarni tanishtiradi. Bastakorning yozgan asarlariga ko‘plab mashhur sozandalar, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar, xalq artistlari iliq fikrlar bildirishadi. Hattoki, Mukkarrama Turg‘unboyevaning bastalagan asarlariga bildirgan yuqori e’tirofi, ochig‘i ijodkor uchun yanada balandroq parvoz qilishga qanot bag‘ishladi. Bunday samimiy munosabatdan ruh olgan yosh bastakor, shu yil ansambl ijrosi uchun “Gulbahor”, hamda yakka raqs talqiniga atab “Sho‘xi pari” nomli nodir asarlar bastaladi. 1961-yil Baxtiyor Aliyevning mana shu ikki asari Finlandiyaning Helsinki shahrida bo‘lib o‘tgan umumjahon yoshlari va talabalari festivalida ijro etildi. Raqqosa Dilbar Fayozova talqinida Mukarrama Turg‘unboyeva tomonidan sahnalashtirilgan “Sho‘xi pari”

raqsi tomoshabinlar va boshqa xalqlar vakillari tomonidan kutilgandanda ortiqroq qarshi olindi. Asarning mahoratli ijrosi hamda “Bahor” raqs jamoasining betakror chiqishlari hakamlar tomonidan yuqori baholanib, festivalning nufuzli mukofoti, oltin medalga sazovor bo‘ldi. Festival doirasidagi ko‘plab xalqlarning ijro chiqishlari oldida “Bahor” raqs ansambli jamoasining yuqori darajadagi o‘zini namoyon eta olgani, barcha O‘zbekiston nomini sharaflashda ishtirok etayotgan festival a’zolarining ko‘ksiga faxr va iftixor bag‘ishladi. Shu yillar bastalagan asarlari ko‘plab san’at ihlosmandlari orasida shuxrat qozona bordi. Asarlardagi soddalik, raqsboblik va ayniqsa xalqchil ohanglarning jilolanib turishi bilan barchaga barobar manzur bo‘lar edi. Mukarrama Turg‘unboyevaning buyurtmasi bilan shu kabi o‘nlab raqsbob nodir asarlar dunyoga keldi. Baletmeysterning talab va xohishini to‘g‘ri his qila olgan ijodkor o‘z ustida ko‘proq izlanib, asarlar bastalashdagi imkoniyatlari yanada kengaytirishdan aslo charchamadi.

“Bahor” ansambli jamoasi 1964-yilda O‘zbekiston kunlari doirasidagi ijodiy safar bilan Afrika qit’asidagi davlatlarda bo‘ldi. Tunis, Liviya, Marokash, Sudan, Livan, Jazoir kabi mamlakatlarda 70 kun davomida o‘zbek san’ati jozibasini kuy-qo‘shiq va raqslar orqali namoyish etdi. 1965-yilga kelib asarlari jilosi anchagina barq urgan Baxtiyor Aliyev ansambl tomonidan va badiiy rahbar Mukarrama Turg‘unboyevaning bir ovozdan saylovi asosida musiqiy jamoaga rahbar etib tayinlanadi. Mana shu kundan e’tiboran rahbar zimmasiga faqatgina ansambl tarkibidagi ijrochilik vazifasi emas, balki shu jamoa gullab yashnashi uchun mehnat qilishdek kuchli ma’suliyat yuklaydi. Shu yil jamoa ijodiy safar bilan Afg‘oniston, Pokiston, Malayziya, Singapur mamlakatlarida ikki oydan ko‘proq vaqt davomida bo‘ldi. Ko‘p xalqlar uchun notanish bo‘lgan o‘zbek san’atining go‘zal qirralarini namoyon qildi. San’atimiz dong‘ini uzoq mamlakatlar sahnalarda yoydi, tarannum ayladi. Baxtiyor Aliyev safarda bo‘lgan kezlari, konsertlar qilishdan tashqari, boshqa mamlakatlar ijodiy jamoalari bilan musiqiy tajriba almashishar edi. Ularning xalq kuylarini ham o‘rganib olar keyinchalik asarlarni ansambl ijrosida namoyon etib, “Bahor” ansambli raqs dasturining boyishiga hissa qo‘shardi.

Baxtiyor Aliyev jahongashta san’atkor. Yer kurrasining ekvator chizig‘ini bir necha martalab kesib o‘tgan, 130 dan ortiq mamlakatlarda safarda bo‘lib, shundan 20 ta davlatlarda qayta-qayta gastrollarda o‘zbek san’atini ko‘z-ko‘z qilgan. B.Aliyev O‘zbekiston hududidagi ichki region musiqa uslublarini juda yaxshi bilgan va ularning alohida jihatlarini farqlay olgan ijodkordir. Har bir kuyning doira usullari-yu, ashula-qo‘shiq ijro yo‘li va xalq kuy-laparlarini o‘rganib chiqib, shu asnoda ko‘plab durdona asarlar bastalaydi. Samarqandcha ohanglarda, Buxoro mavrigilari, voha uslubidagi kuylar, xorazmcha qayroq raqs kuylar, Toshkent-Farg‘ona uslubidagi bir-birini takrorlamas ajoyib raqs harakatlari uchun bastalangan asarlar “Bahor” raqs ansambli qizlari dasturini yildan yilga boyitib bordi.

Baxtiyor Aliyev qalamiga mansub “Buxorocha raqs”, “Buxoro go‘zali”, “Raqs”, “Duxtari Lola”, “Katta ashula”, “Qo‘shiq raqsi” singari ko‘plab kuy va raqslari yuqoridagi fikrimizga isbotdir. Bundan tashqari mavsumbop kuylar, bayramlarga atab ommaviy raqslar uchun asarlar bastaladi: “Bahor nashidasi”, “Gulbahor”, “Paxta bayrami”, “Qo‘y, xo‘roz urushtirish”, “Ot o‘yini”, “Sport-do‘stlik bayrami”, “To‘y bugun”, “Musobaqa raqsi”, “Suzana” kabi o‘nlab ommaviy raqslar uchun hamda ansamblning o‘z ijro repertuari uchun nodir asarlar yaratdi. 1968-yil Respublika teatr ijodkorlari uyushmasiga a’zo qilindi va 1987-yil navbatdagi teatr ijodkorlari bilan Afg‘onistonda bo‘lgan urushda konsert brigadasida qatnashib, harbiylarga ruhiy dalda va kuch bag‘ishladi.

Baxtiyor Aliyev mehnatlari samarasi ro‘yobga chiqib 1973-yil 5-noyabrda Davlat mukofoti laureate unvoniga sazovor bo‘ldi. 1974-yil esa O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, 1983-yilga kelib O‘zbekiston xalq artisti sharafli mukofotlari bilan taqdirlandi.

Meni 1986-yil Toshkent davlat konservatoriyasini tugatish arafasida talabalarni ishga joylashtirish masalasi bo‘yicha taqsimot bo‘layotgan bir paytda shaxsan Baxtiyor Aliyev xamda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Xayrulla Lutfullaev “Bahor” raqs ansambliga ishga taklif etishgan. Shu yilning o‘zida Baxtiyor aka bilan birgalikda mashhur sozanda-yu raqs ustalari bilan ish faoliyatimni boshladim.



Chapdan: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Komiljon Mirzayev (g‘ijjak), O‘zbekiston xalq artisti Baxtiyor Aliyev (chang), Muzaffar Muhamedov (klarnet)

Men ishga kirgan yillarim ansamblga Qunduz Mirkarimova baletmeystrlik qilardi. “Bahor” raqs ansambli jamoasi bilan juda ko‘p mamlakatlarni kezdim. Ayniqsa Baxtiyor aka bilan ishlash jarayonida juda ko‘p ijodiy bilimga ega bo‘ldim.

Bastakorning Mustaqillik arafasida yaratilgan “Makonim O‘zbekiston”, (1990) “Erkalab”, “Baxt taronasi”, (1991) “Mustaqil diyorim”, “Bahor nashidasi”, “Parvona”, “Yalla aytayin” (1992) “Mukarrama xonim o‘ynasin”, “Sog‘inib” (1993) “Bahor o‘ynasin”, “Tavois” (1994) “Xiva go‘zali”, “Varzob navosi”, “Dilovar” (1995) “Dil yayrasin”, “Xumo o‘ynasin” (1996) “Buxorcha”, “Mohi pari” (1998) “O, Navro‘z” (2000) “Simalak” (2001) “So‘zana” (2002) singari ko‘plab yozgan asarlarini ijodiy safarlarda maroq bilan ijro qilardik. Bunday o‘lmas musiqiy asarlar xozirgi kunda xam musiqaga ixtisoslashtirilgan oliy ta’lim dargohlarida dasturi amal bo‘lib xizmat qilishi uchun Baxtiyor Aliyevning asarlari asosida sozandalar ansambliga o‘quv qo‘llanma tayyorlashga xarakat qildik. Baxtiyor Aliyevning eng sara asarlari notaga olinib o‘quv qo‘llanmadan joy olgan.



Chapdan: O‘tkir To‘ychiyev (g‘ijjak), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Komiljon Mirzayev (g‘ijjak), Ilhom Hamdamov (nay), ansambl rahbari O‘zbekiston xalq artisti Baxtiyor Aliyev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Muhammadjon Shokirov (bayan), Najot To‘raxo‘jayev (tor), Tolibjon Ikromov (soz).

Chapdan ikkinchi qator: G‘ayrat G‘aniyev (doira), Murodjon Foziljonov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Xasan Azimov (doira), Erkin Nishonov (qo‘shnay).



I BOB. SOZANDALAR ANSAMBLLARI VA ULARNING TURLARI

“Ansambl” **(**fransuzcha ensemble – birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik) musiqada – a) ma’lum musiqa asarlarining bir necha ijrochilar tomonidan birgalikda ijro etilishi. Ijrochilar soniga qarab ansambllar duet (2 kishi), trio yoki terset (3 kishi), kvartet (4 kishi), kvintet (5 kishi), sektet (6 kishi), septet (7 kishi), oktet (8 kishi), nonet (9 kishi) va h.k.larga bo‘linadi”[2]. Oddiy qilib aytgan jamoa bo‘lib faoliyat olib borishga aytiladi.



Юнус Ражабий раҳбарлигидаги ансамбль. 1929 йил. Биринчи қаторда (чапдан ўнгга) Назир Ғозиев, Ориф Қосимов, Карим Зарипов, иккинчи қаторда — Ғулом Мирзаев, Имомжон Икромов, Мақсудхўжа Юсупов, Рихси Ражабий, Шораҳим Шоумаров; учинчи қаторда — Юнус Ражабий, Хайрулла Убайдуллаев, Аброр Дадахўжаев.

Ansamblga berilgan bu ta’rifda musiqa ijrochiligida mavjud barcha jamoaviy ijrolarni shakli va tarkibi ifodasini topgan. Ansambl ijrosi musiqa ijrochiligining barcha turlarida mavjud va ularning tarkibiy jihatlari bir-biriga mutanosibdir. Faqat ularning ijroviy jarayonidagi yo‘nalishlar ularni bir-biridan farqlab turadi. An’anaviy cholg‘u ijrochiligi

[2] I.Akbarov. Musiqa lug’ati.-T., 1987 y. 112 - bet.

va xonanalik ijrochiligida mavjud bo‘lgan ansambl turlari bunga to‘la asoslanganligi amaliyotda o‘z ijobatini topgan. Demak, cholg‘u ijrochiligida ham xonandalikda ham ansambl – bu jamoa bo‘lib xonish qilishga aytiladi.

O‘zbek musiqa ijrochiligida ansambl, ya’ni jamoa bo‘lib ijro etish ko‘nikmalari qachonlardir amaliyotga kirib kelganligini xalq ijodiyotidan bilib olish mumkin. Bu xalq milliy marosimlari, tomosha san’ati, teatrlashgan jamoalar xonishlarida o‘zini namoyon etib kelgan. An’anaviy ijrochilikning jamoaviy xonishlari ham vaqt taqozosi bilan qo‘llanilib, sekin-asta an’anaga aylangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bunga asosiy sabab, asarlarning keng ko‘lamliligi, katta avjlar bilan ijro etiladigan murakkablarini yaratilishi va albatta ochiq joylarda xonish jarayonlarini o‘tash sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.[3]

Ilk ansambl 1923 yili To‘xtasin Jalilov rahbarligida, 1927 yili radio qoshida, Yunus Rajabiy rahbarliklarida tashkil etilib, faoliyat yuritib kelgan. Turli tarkiblarda tuzilgan ansambllar faoliyati XX asrning birinchi yarmidayoq keng ommalashgan va amaliyotga keng joriy etilgan. 1957 yili Yunus Rajabiy rahbarligida va O‘zbekiston teleradiosi qoshida maqomchilar ansambli tashkil etilishi ulkan voqeaga aylandi. O‘zbek mumtoz musiqa merosini qayta tiklash va ijro amaliyotini mustahkamlash bilan boshlangan. Natijada Shashmaqom tarkibidagi aksariyat namunalar ijro etilib, plastinkalarga, magnit tasmalariga yozib olingan. Avvalo ushbu ansamblning tarkibi, zamonasining eng ko‘zga ko‘ringan, mashhur va ustoz san’atkorlaridan tuzilgan. Sozandalik va xonandalikda benazir ustozlar edilar. Qolaversa, Shashmaqom va maqom yo‘llarini bilimdonlari, ansambl rahbarlarining benazir maqomdon mutaxassislar bo‘lganliklari sabab musiqiy merosning to‘liq hamda mukammal ijrosiga erishganlar. Buning barchasi haligacha zamon ijrochilari uchun dasturi amal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu ansambldan keyingi avlod uchun ustoz Yunus Rajabiyning ijro uslubi, qoldirgan ulkan merosi namunadir. Shu bois bo‘lsa kerak har bir tashkil etilgan, ya’ni san’atkorlar jamlangan ansambl avvalo mavjud merosni o‘zlashtirishga, agar bilimi, ilmi va imkoniyati bo‘lsa uning yangi

[3] K.Bo‘riyeva “Ansambl sinfi”. – 2017 y. 6-bet.

talqinini topishga harakat qiladi. Eng muhimi o‘tgan asrning 70– yillaridan boshlab turli viloyatlarda, musiqa bilim yurtlarida, madaniyat maskanlaridan jamoa bo‘lib ijro etuvchi maqomchilar ansambllari tashkil etilib faoliyat yuritib kelmoqdalar. Oxirgi 30 yil davomida Y.Rajabiy nomidagi maqom ansamblining o‘zi Shashmaqomning aksariyat qismlarini yangi talqinda magnit tasmalariga yozishga muvaffaq bo‘ldilar. O‘zbekiston davlat konservatoriyasining An’anaviy ijrochilik kafedrasi professor – o‘qituvchilaridan tashkil topgan Faxriddin Sodiqov nomidagi maqomchilar ansambli o‘z faoliyati bilan ushbu sohada yana bir mukammal jamoaning bunyod bo‘lganligini namoyon etdi. Bu ansamblning oliy o‘quv dargohida tashkil etilganligi, kelgusi avlodning zamonga munosib tarbiyalanishida o‘quv laboratoriyasi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Yuqorida ansambl – bu jamoa dedik. Demak jamoaning tartibli bo‘lishi, ovozlarning go‘zal uyg‘un topishi chiroyli asarlarning ijroda namoyish etishi uchun ularni tarbiyalash lozim bo‘ladi. Ya’ni ansambl ijrosining o‘ziga xos tarbiyasiga rioya qilinadi.

Ijodiy jamoa, ya’ni ansambl uning tashkilotchisi (rahbar) tomonidan maqsadli ravishda tashkil etiladi. Ana shu jarayondagi maqsad, ansambl ishtirokchilari bo‘lmish sozandalarning tanlanishi va saralanib olinishi uchun asos bo‘ladi.

Ansamblning kamol topishi, sozandalarda ijrochilik ko‘nikmalarining rivojlanishi, ansamblda jamoaga xos talqin etishni o‘zlashtirish, jamoaning ijodiy faoliyati bilan xarakterlanadi. Eng avvalo ustoz – rahbarning jamoani o‘zlashtirib olishi. Ularga mos munosabatda bo‘lishi, ijro repertuarini qatnashchilarning imkoniyati, ijrosiga mosligini ta’minlanishi bilan bog‘liqdir. Ta’lim jarayoni uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlarning oldindan shakllanishi va ularga keng imkoniyatlar berilishining ham sababi shundadir. Ustoz va shogirdlarning, ya’ni talabalarning imkoniyatlari va har tomonlama xarakterli jihatlarini inobatga olgan holda ustozona shaklda saboq o‘tilsa, albatta ansambl tobora mukammallashishi muqarrardir.

Musiqa ijrochiligi borasidagi tariximizga nazar soladigan bo‘lsak mamlakatimizda bir qancha professional hamda ko‘plab havaskorlik ansambllarining faoliyat yuritganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu

ansambllar o‘z ijodiy faoliyati davomida maqomlarimiz, xalq kuylari, o‘zbek bastakorlari qalamlariga mansub asarlarni kelajak avlodga bezavol yetkazishda ko‘prik vazifasini o‘tagan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Faoliyat ko‘rsatgan va ko‘rsatayotgan badiiy havaskorlik ansambllari orasida bir qator “Xalq ansambli” degan sharafli unvonga sazovor bo‘lgan jamoalarning borligi ham davlatimizning bu sohaga qanchalik katta e’tibor bilan qarayotganligidan dalolat beradi. Bulardan tashqari mamlakatimizda bir qator professional jamoalar ham mavjud.

1.1. “Katta” ansambl

Ushbu ansamblning birinchi rahbari Nikolay Nazarovich Mironov bo‘lib, u ansambl asosan nota bilan ijro etiladigan jamoa hisoblanar edi (musiqiy jamoatchilik orasida “Notniy ansambl” deb yuritilardi). Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, davr talabi bilan ushbu ansamblga taniqli san’atkor, mohir sozanda va bastakor To‘xtasin Jalilov rahbar etib tayinlanadi. Bu ansamblda o‘sha davrning taniqli hofizlaridan: Mulla To‘ychi Toshmuhammedov (To‘ychi hofiz), Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Rafael Tolmasov, Muhiddin Qori Yoqubov, Tamaraxonim, Lutfixonim Sarimsoqova, Jo‘raxon Sultonov, Karim Zokirov, Halima Nosirova, aka-uka So‘fixonovlar, Akbar Haydarov va Turg‘un Karimov, sozandalardan: Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon ota Umrzoqov, Ashirali Yusupov, Usta Olim Komilov, Po‘lat Rahimov, Rizqi Rajabiy, Maqsudxo‘ja Yusupov, Saidjon Kalonov, Komiljon Jabborov, Jo‘rabek Saidaliyev, Abdumutal Abdullayev, Nabijon Hasanov, Muhammadjon Mirzayev, G‘anijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov, Shobarat tanburchi, Otavali Nuriddinov, Matyusuf Xarratov kabi bir qator mashhur san’atkorlar ijodiy faoliyat ko‘rsatishgan. 1937 - yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan birinchi o‘zbek adabiyoti va san’ati kunlarida «Katta ansambl» jamoasi ham qatnashib ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi. Ushbu ansambl ikkinchi jahon urushi, ya’ni 1941-1945 yillarda ham o‘z faoliyatini to‘xtatmasdan jang maydonlari va front ortidagi mehnatkashlar oldiga o‘z chiqishlari bilan faoliyatini davom ettirdi.

1947 - yilda Muqimiy nomli Davlat musiqali drama va komediya teatri tashkil etilishi munosobati bilan To‘xtasin Jalilov mazkur tetrning badiiy rahbarligiga tayinlanadi va shu sababli “Katta ansambl”ga

O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova rahbar etib tayinlanadi. Ansamblning musiqa rahbari etib esa xalq musiqa merosining bilimdoni, mohir sozanda, O‘zbekiston xalk artisti Ayub Qodirov tayinlanadi. O‘sha vaqtda ansamblga respublikamizda o‘z san’atlari bilan tanilgan ajoyib xonanda va sozandalar yig‘ilgan edi. Muhammadjon Mirzayev, Mehri Abdullayeva, Hamro Abdullayev, Sayfiddin Yo‘ldoshev, G‘ofur Azimov, Ergash Yo‘ldoshev, Zaynab Polvonova, Ergash Shukurullayev, Muhabbat Musayeva, Adiba Mirzayeva, To‘xta Yo‘ldosheva, To‘xta Rismetovalar ansamblning mustahkam poydevori hisoblanar edi. 1957-yildan 1976-yilga qadar ansamblga O‘zbekiston xalq artisti, bastakor Hakim Nishonov badiiy rahbarlik qildi, bosh baletmeyster bo‘lib esa Isoxor Oqilov va Akbar Mo‘minovlar faoliyat ko‘rsatishgan. Ayni o‘sha davrda ansamblning repertuari rang-barang asarlar bilan boyidi. Ansambl repertuardan o‘zbek xalq qo‘shiq va raqslari, xorijiy xalqlar kuy va qo‘shiqlari, shuningdek, o‘zbek bastakorlarining yangi asarlari mustahkam o‘rin egalladi. Asarlarning mavzusi asosan mehnat, Vatan tuyg‘usi, lirika, zamonni madh etuvchi ruhlar bilan sug‘orilgan edi.

1976-yildan ansamblga O‘zbekiston xalq artisti Dilafro‘z Jabborova badiiy rahbar, O‘zbekiston xalq artisti Qodir Mo‘minov bosh baletmeyster va sozanda Tuyg‘un Otaboyev esa musiqa rahbarlik vazifasini bajara boshladilar. Bu ansambl ham o‘zining faoliyati davomida nafaqat respublikamiz, balki sobiq ittifoq davlatlari va xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo‘lib o‘zbek milliy musiqasi va raqs san’atini targ‘ib qilishda o‘z hissasini qo‘shgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Ansambl tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Ansambl so‘zi nima degan ma’noni anglatadi?
3. Ansamblning kelib chiqish tarixi haqida bilasizmi?
4. “Katta ansambl” jamoasiga kim rahbar bo‘lgan?
5. Musiqiy ensiklopediyadan “Katta ansambl” haqida ma’lumotlarni to‘plang.
6. “Katta ansambl”da ijro qilingan asarlarni topib ijro qilib ko‘ring.

1.2. “Maqom” ansambli

Ushbu ansambl 1959 - yilda, O‘zbekiston radiosi qoshidagi 1957 - yilda tashkil etilgan xalq cholg‘ulari orkestri negizida, Yunus Rajabiy rahbarligida tashkil etildi.

Yunus Rajabiy bu ansamblga xalq musiqa merosining ham nazariy, ham amaliy bilimdonlari bo‘lgan o‘sha paytdagi mashhur hofiz va sozandalarni jam qilgan. Qisqa davr ichida ushbu ansambl ijrosida, Alisher Navoiyning 525 yilligiga bag‘ishlab Buxoro “Shashmaqomi”ning to‘liq nasr qismi magnit tasmalariga tushirildi va plastinka orqali xalqimizga yetkazildi. Qolaversa, bu ansambl ijodkorlari shuning o‘zi bilan chegaralanib qolmay, ko‘plab Farg‘ona-Toshkent yo‘nalishidagi mumtoz kuy-qo‘shiqlarni ham O‘zbekiston radiosining oltin fondiga yozib qoldirishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu ansamblning ijodiy ravnaqiga xonandalardan: Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, Karim Mo‘minov, Orif Alimaxsumov, Tolibjon Badinov, Zaynab Polvonova, Siroj Aminov, Hadya Yusupova, Ishoq Katayev, Izro Malakov, Ilhom To‘rayev, Umar Otayev, sozandalardan Faxriddin Sodiqov, Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev, Turg‘un Alimatov va boshqalar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar.

1971 - yilda Yunus Rajabiy o‘zbek musiqa san’ati rivoji yo‘lida qilgan katta xizmatlari uchun Davlat mukofotiga sazovor bo‘lib, keyinchalik akademik ilmiy unvoni ham berildi. Ansambl ijrosida yozib olingan Buxoro “Shashmaqomi”, Farg‘ona-Toshkent yo‘lidagi ko‘plab xalq mumtoz kuy va qo‘shiqlari, katta ashula va yallalar, o‘zbek bastakorlari qalamiga mansub asarlar radioning oltin fondida saqlan-moqda. Ansambl 1972 - yilda Olma-ota shahrida, 1978 – 1982 va 1986-yillarda esa Samarqand shaharlarida bo‘lib o‘tgan musiqashunoslarning “Osiyo minbari” nomli xalqaro simpoziumida, 2003, 2005, 2007, 2009, 2011 yillarda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro “Sharq taronalari” festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, nafaqat respublikamiz-dan, balki butun dunyodan kelgan musiqashunos olimlar va turli toifadagi tomoshabinlar olqishlariga sazovor bo‘ldilar. Yunus Rajabiyning vafotidan keyin ushbu ansamblga turli yillarda O‘zbekiston xalq artisti Orif Alimaxsumov, G‘anijon Toshmatov, Shavkat Mirzayev, Isroiljon

Vahobovlar rahbarlik qilishgan. Bugungi kunda esa ansamblga mohir sozanda va taniqli bastakor, O‘zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov rahbarlik qilmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. “Maqom” ansambli qachon tashkil topgan?
2. “Maqom” ansambli kimning rahbarligi ostida tashkil topgan?
3. “Maqom” ansamblining ijodiy ravnaqi yo‘liga hissa qo‘shgan mashhur sozandalardan kimlarni bilasiz?
4. “Maqom” ansambli jamoasiga ijro qilgan asarlardan namunalar ijro qilib bering.
5. Musiqaga oid kitoblardan “Maqom” ansambli haqida ma’lumotlarni toping.

1.3. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan “Bahor” raqs ansambli.

1957-yilda Xalq artisti, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotining sovrindori, o‘zbek raqs san’atining yirik namoyandasi Mukarrama Turg‘unboyeva rahbarligida O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida tashkil qilindi. Dastlab ansambl safiga birinchi qaldirg‘och sifatida Tamara Yunusova, Zulayho Rahmatullayeva, Dilbar Abdullayeva, Ra’no Nizomova, Dilora Karimova, Erkinoy Rasulxo‘jayeva, Liliya Rasulova, Valentina Romanova, Nela Bashirova, Alla Rahimjonova, Samiya Ahmadiyeva singari yosh iste’dodli raqqosa qizlar qabul qilindi. Bosh baletmeyster sifatida ham faoliyat yuritgan Mukarrama Turg‘unboyeva jamoaning ijodiy jarayonida ko‘plab professional raqqosalarni tayyorladi. Musiqa rahbari sifatida faoliyat yuritgan Salohiddin To‘xtasinovning xizmatlari esa ansambl taraqqiyotida hozirgacha poydevor vazifasini bajarib kelmoqda.

Bu ansambl tez orada o‘zining repertuari, professional ijro uslubi bilan nafaqat mamlakatimiz, balki sobiq ittifoq respublikalari, bir qator xorijiy mamlakatlarning ham e’tiborini qozondi va tashkil topgan yilning o‘zidayoq Moskva shahrida o‘tkazilgan butun jahon yoshlari festivalida qatnashib, ilk bora zafarni qo‘lga kiritib, festivalning lauretlik diplomi bilan taqdirlandi. Safardan qaytgan butun jahon yoshlar festivalining

laureati “Bahor” ansambli A.Navoiy nomli katta akademik teatrning sahnasida o‘zining hisobot konsertini namoyish qildi. Bu ilk muvaffaqiyat jamoaning dastlabki yillardanoq uyushqoqlik, kuchli intizom bilan ish olib borganligining natijasi edi. Yil sayin ansambl repertuari boyitilib uning dasturidan bastakorlar qalamiga mansub Paxta, “Namanganning olmasi”, “Farg‘ona ruboiysi”, “Rohat”, “Andijon polkasi”, “Buxorocha”, “Xorazmcha”, “Ufori sanam”, “Gulnoz”, “Pilla”, “Bahor valsi”, “O‘yin bayoti”, “Uyg‘urcha”, “Janon” kabi yakka hamda ommaviy raqslar o‘rin oldi. Ansamblning badiiy rahbari va bosh baletmeysteri Mukarrama Turg‘unboyevaning jamoani tashkil etishda, uning ijodiy rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi va o‘zbek milliy raqs san’ati borasida qilgan xizmatlari uchun Respublikamiz hukumati tomonidan 1959 -yilda Xalq artisti yuksak unvoni bilan taqdirlandi. Ansambl tarkibida taniqli sozanda va bastakor Salohiddin To‘xtasinov rahbarligida sozandalar ansambli ham tashkil topdi. Shundan keyin ansamblning repertuari tubdan yaxshilanib bordi. Milliy qo‘shiqlar va raqslar bilan bir qatorda ozar, turkman, tojik, uyg‘ur, qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari va raqslari, shuningdek xorijiy xalqlar: hind, afg‘on, eron, arab, xitoy va boshqa xalqlarning musiqa asarlaridan namunalar o‘rganila boshlandi. Ansamblning ulkan ijodiy muvaffaqiyatlari tufayli bir qator sozanda va xonandalar ham respublikamizning yuksak unvonlariga sazovor bo‘lishdi.

O‘zbekiston xalq artistilari va Davlat mukofoti sovrindorlari Baxtiyor Aliyev va Qahramon Dadayev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Rabbim Hamdamov, Baxtiyor Yo‘ldoshev, Muzaffar Muhamedov, Komiljon Mirzayev keyinchalik O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan Xayrulla Lutfullayev, Tal’at Sayfiddinov, Ahmadjon Shukurovlar shular jumlasidandir. Qisqa vaqt ichida “Bahor” ansamblining dovrug‘i butun olamga yoyildi. Ansambl 1965 - yilda birinchi marta Afrika qit’asi-ning shimoliy qismida joylashgan mamlakatlarda ijodiy chiqishlari bilan o‘zbek san’atini namoyish etib olqishlarga sazovor bo‘ldi. Ansambl ijodiy faoliyati davomida Liviya, Sudan, Jazoir, Misr, Marokash kabi 100 dan ortiq davlatlarda ijodiy konsertlarini muvofaqqiyatli namoyish qilgan. 1961-yilda ansambl O‘zbek Davlat filarmoniyasidan alohida ajralib chiqdi va mustaqil jamoa sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Ansambl rahbari,

o‘zbek milliq raqs san’atining bilimdoni Mukarrama Turg‘unboyeva 1979 - yilda Toshkentda vafot etdi.

Savol va topshiriqlar:

1. “Bahor” raqs ansambli qachon tashkil topgan?
2. “Bahor” raqs ansambli kimning rahbarligi ostida tashkil topgan?
3. “Bahor” ansamblining ijodiy ravnaqi yo‘liga hissa qo‘shgan mashhur sozandalardan kimlarni bilasiz?
4. “Bahor” ansambli jamoasi ijro qilgan asarlardan namunalar ijro qilib bering.
5. B.Aliyev ansambl uchun yozgan asarlaridan ijro qilib bering.



1.4. “Lazgi” ashula va raqs ansambli

1957-yilda O‘zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, bastakor, milliy qo‘shiqchilik san’atining yirik namoyandasi, ustoz san’atkor Komiljon Otaniyozov rahbarligida O‘zbek Davlat filarmoniyasi qoshida tashkil qilindi. Komiljon Otaniyozov ansamblni tashkil qilishda xalq orasidan iste’dodli yoshlarni izlab topish, ularni jamoaga jalb qilish ishlarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi. Katta mehnat, izchil harakat, ijodiy izlanishlar evaziga ansambl uchun rang-barang repertuar yaratildi. Ansamblga O‘zbekiston xalq artisti Komuna Ismoilova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Quvondiq Iskandarov, Bekjon Otajonov singari xalq dilidan munosib joy olgan san’atkorlar hamda xalqqa endi tanila boshlagan bir qator yosh ijodkorlar birlashtirildi. Respublikamiz bo‘ylab qilingan ijodiy safarlar, turli konsertlar ansambl jamoasining ijrochilik mahorati uchun pillapoya vazifasini bajardi.

Tez orada ansambl o‘zining to‘laqonli jamoasiga ega bo‘ldi. Ansamblga Olmaxon Hayitova, Sharif Sultonov, Ibodulla Abdullayev, Ortiq Otajonov, Gulchehra Ismoilova kabi istiqbolli yosh kuchlar kirib keldilar. ”Lazgi” ashula va raqs ansamblining bosib o‘tgan oydin yo‘li, ijodiy muvaffaqiyatlari bevosita Komiljon Otaniyozovning nomi bilan bog‘liqdir. 1968-yilda Xorazm ashula va raqs ansambliga “Lazgi” nomi berildi. Komiljon Otaniyozovdan keyin ansamblning badiiy rahbari etib, O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimova tayinlanadi. Gavhar Rahimova yangi ansamblning badiiy shakli, ijrochilik uslubi haqida qayg‘urib, ustoz san’atkorlar bilan juda ko‘p maslahatlashadi. Ijodiy izlanishlar natijasida ansambl ko‘proq etnografik yo‘lni tutishi kerak, degan xulosaga keldi. Chunki bu xulosa jamoaning respublika miqyosida o‘ralib qolmasligini ta’minlar, uning barcha Respublikalarda va xorijiy mamlakatlarda konsert dasturlari bilan chiqish uchun imkon berar edi. Gavhar Rahimova ansamblning yangi dasturini tuzib chiqdi. Dastur filarmoniyaning badiiy kengashida tasdiqlandi. O‘sha yillari Gavhar Raqimova tashabbusi bilan san’atning qo‘shiq va raqs turlari bo‘yicha tanlov e’lon qilindi. Bu tanlov ansamblga ko‘pgina yosh xonanda va sozandalarni ishga olish imkonini berdi. Tanlov g‘oliblaridan Nurjahon Sattarova, Ravila Ahmadiyeva, Oydin Egamberdiyeva, Gulsara Yoqubova, g‘ijjakchi Sobirjon

Yo‘ldoshev, Otaxon Matyoqubov, surnaychi va bulomonchi Qodir usta Bobojonov, klarnetchi Nazirjon Ollobergenov, bayanchi Rim Galimov, laparchi va raqqosa Dilbarxon Shoumarovalar ansamblning haqiqiy a’zolari bo‘lib qoldi. Ansamblning konsert dasturlari boyitilib dasturdan “Qalbim uyg‘ondi”, “Saodatlik zamonada”, “Xiva qizlari lazgisi” kabi Xorazm xalq ashula va raqslari mustahkam o‘rin egalladi. Keyinchalik ansamblga iste’dodli xonanda, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rahmatjon Qurbonov rahbarlik qildi. Hozirgi kunda “Lazgi” ashula va raqs ansambliga O‘zbekiston xalq artisti Og‘abek Sobirov rahbarlik qilib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. “Lazgi” ansambli qachon tashkil topgan?
2. “Lazgi” ansambli kimning rahbarligi ostida tashkil topgan?
3. “Lazgi” ansamblining ijodiy ravnaqi yo‘liga hissa qo‘shgan mashhur sozandalardan kimlarni bilasiz?
4. “Lazgi” ansambli jamoasi ijro qilgan asarlardan namunalar ijro qilib bering.

1.5. “Dutorchi qizlar” ansambli

1979 yilda O‘zbekiston xalq artisti, taniqli bastakor va sozanda G‘anijon Toshmatov rahbarligida O‘zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshida tashkil etildi. Ansamblning musiqa rahbari sifatida Zamira Rahmatullayeva faoliyat yuritdi. O‘sha yili Respublika matbuoti orqali ansambl a’zosi bo‘lishni xohlovchi iqtidorli xonanda, sozanda va raqqosalar uchun tanlov e’lon qilinib tanlov g‘oliblaridan Zamira Suyunova, Ozoda Madrahimova, Ra’no Bo‘ronova, Sanobar Sultonova, Sora Toshmatova, Mohira Asadova, Qursiya Esonova, Zaynab Mirzatillayeva, Marhabo Rahmatillayeva, raqqasolar: Matluba Jo‘rayeva, baletmeyster Zebo Tursunova, Gulnoza Narimonova, Saida Yusupova, Dilorom Mirzayeva va boshqalar ansambl safiga qabul qilindilar. Ansambl repertuarini boyitishda bastakorlardan Manas Leviyev, Muhammadjon Mirzayev, Matniyoz Yusupov, Sayfi Jalil, Rahmatjon Tursunov, Telman Hasanov, Qahramon Komilov va Abduhoshim Ismoilovlar yaqindan yordam berdilar. Ulkan mehnat va ijodiy izlanishlar tufayli ansamblda

rang-barang repertuarlar yaratildi. Ansamblning konsert dasturi xilma-xil asarlar bilan boyib bordi. Ansambl dasturidan “Ol xabar”, “Yor-yoraxon”, “Qoralar”, “Abdurahmonbegi”, “Omon yor”, “Olmacha anor”, “Qizgina”, “Tanovor”, “Fabrikaning yo‘lida”, “Chamannoringdan” kabi xalq qo‘shiqlari, “Yoshligim” (M.Yusupov musiqasi), “Bahor o‘xshar baxtimga” (M.Leviyev musiqasi), “Vatan”, “Atirgul” (T.Hasanov musiqasi), “Zamona baxti”, “O‘zbekiston” (G‘.Toshmatov musiqasi), “Oybuloq”, “Humo” (A.Ismoilov musiqasi), “Vatan madhi”, “Onamga xat”, “Ishqing yo‘lida”, “Tong sahar g‘azal bitdim” (R.Tursunov musiqasi) va boshqa asarlar keng o‘rin egalladi. Ansambl dasturining rang-barangligi, xalqchilligi bilan tezda respublika va qo‘shni respublikalarda shuhrat qozondi. 1980 - yilda Abu Ali ibn Sinoning 1000 yilligiga bag‘ishlab Moskvada o‘tkazilgan tadbirda “Adol tanovor”, “Qoshlari qoralar”, “Yovvoyi tanovor” va boshqa xalq qo‘shiqlari bilan ishtirok etishga muvaffaq bo‘ldi.

1981-yili Tojikistonda o‘tkazilgan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” kunlarida “Gulg‘unchalaringda”, “Atirgul”, “Dutor chertilar bu tong”, “Qizlar salomi” kabi asarlar bilan qatnashib, Tojikiston Madaniyat vazirligining faxriy yorliqi bilan taqdirlandi.

1983-yili Samarqand shahrida o‘tkazilgan ”Osiyo minbari” nomli musiqashunoslarning xalqaro simpoziumida mazkur ansambl ham qatnashish sharafiga muyassar bo‘ldi. Bu simpoziumda ansambl o‘zining “Ona tuprog‘im”, “Ozod Sharqning qizimiz”, “Toshkent madhi”, “Ayrilmasun” kabi asarlari bilan qatnashib, musiqashunoslarda juda yaxshi taassurotlar qoldirdi. Ansamblning unutilayozgan xalq qo‘shiqlarini tiklashdagi xizmatlarini beqiyos deya baholash mumkin. Bu ishda Saodat Qobulova, Kommuna Ismoilova, Berta Davidova, Malohat Dadaboyeva, Hadya Yusupova, Ishoq Katayev, Eson Lutfullayev, Izro Malakov va boshqa san’at ustalarining xizmatlari katta. Dutorchi qizlar ansambli ijrosidagi qo‘shiqlar o‘ziga xos qirralari, ijrodagi mahorat, teranlik va nafislik kabi sifatlarni o‘zida mujassam etganligi bilan kishini maftun etadi. Ansambl repertuaridagi qo‘shiqlar, hozirgi kunga kelib 400 dan oshdi. Ular orasida klassik yo‘lda ijro etiladigan ashulalar, yengil xalq hazil qo‘shiqlari hamda zamonaviy taronalar bor. Bir vaqtlar

unutilayozgan “Chamanzor”, “Yor-yoraxon, Gulyoraxon”, “Sim-sim oralab”, “Yo‘l bo‘lsin” singari ko‘plab xalq qo‘shiqlari shu ansamblning xizmatlari tufayli qaytadan ommalashib ketdi.

“O‘zbekiston-serquyosh o‘lka”, “Cho‘lga borgim keladi”, “Baxtiyorlik”, “Bahor taronasi”, “Ishq asir etmagan kim bor” kabi qo‘shiqlar esa bugungi kun kishisining saodatli hayotini, baxtga oshno mehnatini, shirin tuyg‘u va his-hayajonlarini aks ettiradi. Ansamblga G‘anijon Toshmatovdan keyin turli yillarda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, sozanda va bastakor Qahramon Komilov(qisqa muddat ichida vaqtincha), xushovoz xonanda, O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, sozanda va bastakor Zamira Rahmatullayevalar rahbarlik qilishdi. Hozirgi kunda “Dutorchilar” ansambliga O‘zbekiston davlat konservatoriyasining dotsenti, sozanda Roza Xo‘jayeva rahbarlik qilib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar:

1. “Dutorchi qizlar” ansambli qachon tashkil topgan?
2. “Dutorchi qizlar” ansambli kimning rahbarligi ostida tashkil topgan?
3. “Dutorchi qizlar” ansamblining ijodiy ravnaqi yo‘liga hissa qo‘shgan mashhur sozandalardan kimlarni bilasiz?
4. “Dutorchi qizlar” ansambli jamoasi ijro qilgan asarlardan namunalar ijro qilib bering.

II BOB. ANSAMBL TARKIBIGA KIRUVCHI CHOLG‘ULAR

2.1 Urma musiqiy cholg‘ular

Bu cholg‘ular turiga doira, nog‘ora, qayroq, safoil, chindovul, tavlak, qoshiq, sagat (tarelka) kiradi. Har bir cholg‘uning o‘ziga xos jarangi, sadolanishi, ko‘rinishi va ijro usullari mavjud. Urma musiqa cholg‘ulari juda qadimiy bo‘lib, ulardan o‘zbek xalqining to‘y marosimlarida, bayramlarida ochiq va yopiq joylarda (xonalarda, saroylarda) yakka hamda ansambl shaklida keng foydalanilgan. Hozirgi kunda ham o‘zining qadimiy ko‘rinishini deyarli saqlab qolgan milliy cholg‘ularimizdan biri doiradir.

DOIRA halqasimon shaklda bo‘lib, uzum (zang) tanasidan, klyon, yong‘oq, tut, o‘rik va boshqa qattiq daraxtlardan egma holda yasaladi. Diametri 37-45 santimetr bo‘lib, asosan toy terisi yoki buzoq terisi bilan qoplanadi. Gardishning ichki qismida jarangni saqlab qoluvchi kichkina halkachalar 2, 2,5 santimetr oraliqda joylashtiriladi. Doiraning boshqa o‘zbek cholg‘ularidan farqi (nog‘oradan tashqari) olovda qizdirilib sozlanadi, ya’ni jarangdorligi oshiriladi.

Arxeologlarning qidiruv ishlari jarayonida topilgan qazilma boyliklardan bizga ma’lumki, doira (buben) bizning asrimizgacha bo‘lgan II asrda ham mavjud bo‘lgan. O‘rta Osiyoda u bundan 2000 yil oldin paydo bo‘lgan. Doira hozirgi kunda ham o‘zbek xalq cholg‘ulari orasida alohida o‘ringa tutadi. U yakka holda yoki ansambl ko‘rinishida ijro etiladi. Shunisi quvonarliki, hozirda faqat doirachilardan tashkil topgan ansambllar ko‘paymoqda. Misol tariqasida Elmurod Islomov, Husan Nosirovlar rahbarligidagi doirachilar ansambllarini keltirish mumkin.

Doira imkoniyati juda keng cholg‘ulardan hisoblanadi. Akademik Yunus Rajabiy maqomlarimizni notaga olgan vaqtda doira usullarini yozish uchun bitta nota chizig‘idan foydalangan. Hozirda esa doira usullarini to‘liq notaga tushirish va kelajak avlodlarga to‘liq qoldirish maqsadida to‘rtta nota chizig‘idan foydalaniladi. Bu esa har bir qo‘l va barmoqlar uchun alohida usullarni, cho‘zimlarni belgilash imkonini beradi.

Doirachilik maktabi asosan ustoz va shogird an’analari orqali rivojlanib bizgacha yetib kelgan. Bunga misol qilib ustoz doirachilardan Usta Olim Komilov, To‘ychi Inog‘omov, G‘ofir Azimov, Qahramon Dadayev, Odil Kamolxo‘jayev, Elmurod, Xolmurod, Dilmurod Islomovlar va Hasan Azimovlarning xizmatlarini alohida qayd etish mumkin.[4]



2.2. Damli (puflab chalinadigan) cholg‘ular

O‘zbek xalq cholg‘ularining yana bir turi damli cholg‘u asboblaridir. Bu turdagi cholg‘ular puflab chalingani bois “damli cholg‘ular” deyiladi va o‘z navbatida ikki guruhga ajratiladi:

1. Kamer, ya’ni yopiq joylarda ijro etish uchun mo‘ljallangan ovozi nisbatan yumshoq cholg‘ular: nay, qo‘shnay.

2. Ochiq joylarda chalishga mo‘ljallangan cholg‘ular: karnay, surnay, bulamon.

Damli cholg‘ular ichida keng tarqalgani va imkoniyat darajasining kengligi bilan ajralib turuvchi cholg‘u naydir.

Nayning XIV-XV asr miniatyuralarida tasvirlanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, uning qadimiy cholg‘u ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu haqda Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ham quyidagicha ma’lumot berib o‘tgan: *“Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil muqaddam suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani ham shundan dalolat beradi”.*

Nay qamishdan (g‘arov nay), bambuk, oq tunuka (brinji nay) suyak (so‘ngak) dan yasaladi. Nayning puflash uchun mo‘ljallangan teshigidan

[4] S.Jumayev “Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi” Toshkent 2016 y.

tashqari oltita teshigi mavjud. Ayrim naylarda bu teshiklar soni yettita bo‘ladi. Xalq sozandalarining fikricha, puflaydigan teshik bilan birinchi barmoq bosiladigan teshik o‘rtasiga qog‘oz yopishtirib qo‘yilsa tovushga sayqal beradi. Mazkur sozlarning uzunligi 50 santimetr bo‘ladi va bir uchi po‘kak bilan berkitiladi. Puflash uchun va barmoqlar bilan berkitish uchun mo‘ljallangan teshiklaridan tashqari ovoz muvozanatini saqlashga yordam beradigan yana ikki yoki uchta ovoz teshiklari mavjud. Puflash natijasida turli tovush va qochirimlarning hosil qilinishi nay chalishning xarakterli xususiyatlaridan biri desak, yanglishmaymiz.[5]



Nay chaluvchi sozanda nayning chalish uchun mo‘ljallangan teshigiga labini shunday qo‘yishi kerakki, lab uning to‘rtdan bir qismini berkitishi lozim. Qo‘l barmoqlarini yaxshi ishlata bilishi kerak. Sozni sadolashda nafas olish tez, chiqarish esa juda tekis hamda davomli bo‘lishi talab etiladi. Nafasni chiqarganda o‘pkada yig‘ilgan havoning hammasini oxirigacha chiqarish tavsiya etilmaydi. Chunki tovushning sifati, yoqimliligi bevosita shularga bog‘liq bo‘ladi. Nayda puflash kuchini o‘zgartirish orqali 2,5 oktavagacha tovushqator hosil kilish mumkin. Nayning ovoz diapazoni birinchi oktava lya tovushidan to‘rtinchi oktava re tovushigacha. Nay chalish bo‘yicha ustozlik darajasiga yetgan san’atkorlardan Ahmadjon Umrzoqov, Abduqodir Ismoilov, Saidjon Kalonov, Halimjon Jo‘rayev, Abdulahad Abdurashidovlarni alohida qayd etish mumkin.

Nayning diapazoni quyidagicha:

Birinchi oktava lya tovushidan to‘rtinchi oktavaning re tovushigacha.



[5] O‘.Toshmatov, S.Turatov, “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” Toshkent 2016 y.

Puflab chalinadigan cholg‘ular turkumiga kiruvchi yana bir cholg‘u asbobi qo‘shnaydir.

QO‘SHNAY - juda qadimdan Sharq xalqlarida, jumladan o‘zbek, tojik xalqlari orasida keng tarqalgan cholg‘u sifatida bizga ma’lumdir. Qadimgi Sharq xalqlariga asosan puflab chalinadigan ikki cholg‘u ma’lum bo‘lgan.

1. Avlos (grekcha nomi)
2. Dunay yoki dubay.

Bu cholg‘ular eramizdan oldingi 2000 yilga to‘g‘ri keladi va hozirgi qo‘shnayga o‘xshagan cholg‘uga monand bo‘lgan.



Qo‘shnay cholg‘usining o‘ziga xos xususiyati bir-biriga bog‘langan ikkita qamishdan yasalganligi va ikkalasining birga ijro etilishidadir. Qo‘shnayning umumiy uzunligi 30 santimetrgacha bo‘lishi mumkin. Biz yuqorida qo‘shnayni juda qadimiy cholg‘u dedik. Uning qadimiyligini yapon olimlari ham isbotlaganlar. Qidiruv ishlari natijasida Namangan viloyati Pop tumanidagi Kultepadan uysifat to‘rtburchak sog‘ona topilgan. Uning ichida qamishdan yasalgan oltita tobut chiqqan. Eramizning V asrlarida insonlar hayotlik davrlarida qaysi ish bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, ana shu kasbga taalluqli biror belgi bilan dafn etilgan ekanlar. Shu bois tobutlar ichidan qo‘shnay asbobi ko‘milgan odam musiqachi, ya’ni qo‘shnaychi bo‘lganligidan dalolat beradi. **(Qo‘shnay haqidagi ma’lumot ustoz qo‘shnaychi Mirzasharif Mirbaratovdan olingan. S.J.)**

Shu o‘rinda mashhur olim Fitratning «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» nomli kitobida aytilgan qo‘shnay haqidagi fikrlarni keltirishni lozim topdik. ***«Fikrimizcha, bizda cholg‘ularning eng ibtidoiysi qo‘shnaydir. Bu kun oradan chiqmoq uzradir. Juda yoniq bir tovushi bor. Ikki qamishni yonma-yon qo‘yib bog‘laydilar. Har ikkisini***

ham bosh tomonlaridan kesib til chiqartadilar-da, og‘izga quyub puflaydirlar».

Qo‘shnayning puflanadigan berk uchi tomonida tilchalarini qisqartirish va uzaytirish uchun ipdan qilingan halqa mavjud. Shu tilchalarni lablar bilan qisqartirish va ularni bosish kuchini o‘zgartirish orqali tovushqator hosil qilinadi. Qo‘shnayning tembri juda baland va yoqimlidir. Hozirda qo‘shnay xalq cholg‘u ansambllarida keng qo‘llanilyapti. Ayniqsa, Xorazm vohasi, Qoraqalpog‘istonning ayrim hududlari, Toshkent shahri hamda viloyatida qo‘shnaydan yakkanavoz soz va jo‘rnavoz soz sifatida yaxshi foydalanilmoqda. Diapazoni birinchi oktava re tovushidan ikkinchi oktava sol tovushigacha, lekin cholg‘uchining mahorati yetarli bo‘lsa undan yuqori tovushlarni ham hosil qilish mumkin.[6]

Ustoz qo‘shnaychilar sifatida Ahmadjon Umrzoqov, Qayum ota, Qurbonboy ota, Mirzasharif Mirbaratov, Nasriddin Ro‘ziyev kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Qo‘shnayning diapozoni birinchi oktavaning “re” tovushidan ikkinchi oktavaning “sol” tovushigacha.



2.3. Noxunli mezrobli cholg‘ular

Bu tur cholg‘ularga qashqar rubobi, afg‘on rubobi, tanbur, qonun va ud kiradi.

QASHQAR RUBOBI – rubob juda qadimiy cholg‘u hisoblanadi. O‘sha davr ruboblari hozirgi biz qo‘llayotgan qashqar rubobi ko‘rinishidan keskin farq qilgan, lekin negizi bir-biri bilan bog‘liqdir. Qadimiy ruboblar besh torli bo‘lgan. To‘rtta simi ipakdan, bittasi esa kumushdan yasalgan.

Shu o‘rinda Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida bayon etilgan jumlani keltiramiz: ***“Yozuvchisi ma’lum bo‘lmag‘an***

[6] S.Jumayev “Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi” Toshkent 2016 y.

bir “musiqiy tarix”chasida rubobning Sulton Muhammad Xorazmshoh tomonidan Xorazmda paydo bo‘lgani yoziladir. Bu kitobni ko‘rganim kun men ham shunga ishongan edim. Biroq 20-yillarda Hindistondan keltirganim “Sorang” ismli bir cholg‘uning rubobga juda o‘xshashligi meni shoshirgan edi. So‘ngralari qo‘limg‘a tushgan Darvesh Aliyning “Risolayi musiqiy”sida bu cholg‘uning Balxda yasalgani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topgani ko‘rsatiladir”.



Bu cholg‘uning kelib chiqish tarixi to‘g‘risida turli manbalarda turlicha ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan Al-Forobiy (X asr) o‘z davrining musiqa asboblarini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVII asr) “Musiqa haqida risola” asarida musiqa asboblarining tuzilishini bayon qilar ekan, “Rubob torli musiqa asbobi. O‘rta Osiyoda Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo‘q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo‘lib, ulardan to‘rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi”,- deb yozadi. “Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg‘ur Avtonom Okrugi) ning Qashqar degan joyi nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zbek milliy cholg‘ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg‘u hisoblanadi. Musiqani endigina o‘zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig‘i ana shu cholg‘udan foydalanishi ma’lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo‘lib, nisbatan tez o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan cholg‘ular qatoriga kiradi”. Qashqar rubobi hozirda yakkanavoz soz sifatida o‘zbek xalq ansambllarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Diapazoni kichik oktava lya tovushidan uchinchi oktava lya tovushigacha. Hozirgi qashqar rubobida beshta tor mavjud. To‘rttasi

metall aralashmasidan, bittasi ichak yoki ipakdan qilinadi. Sozlanishi kvarta va kvarta kvinta oralig‘ida bo‘ladi, ya’ni birinchi tor lya tovushiga, ikkinchi tor mi tovushiga, uchinchi tor lya yoki si tovushlariga sozlanadi.[7]

Rubob chalish san’atida ustozlik darajasiga yetgan sozandalar: Muhammadjon Mirzayev, Shavkat Mirzayev, Ari Boboxonov, Orif Atoyev, Tohir Rajabiy va boshqalar el orasida mashhur.

Qashqar rubobining diapazoni va sozlanishi quyidagicha:

Birinchi juft torlar birinchi oktavaning “lya” tovushiga (unison), ikkinchi juft torlar birinchi oktavaning “mi” tovushiga (unison), uchinchi ichak tor esa kichik oktavaning “si” tovushiga sof kvarta oralig‘ida yoki an’anaviy ijrochilikda ba’zan asar xususiyatidan kelib chiqqan holda “lya” tovushiga ham sozlanadi.



Qashqar rubobining diapozoni kichik oktavaning “si” tovushidan uchinchi oktavaning “si bemol” tovushigacha.



AFG‘ON RUBOBI–juda qadimiy musiqa asbobidir. N.N. Mironov tomonidan afg‘on rubobining Hindistonda uchrashi, Qashqarda uni rabob deb atalishi yozilgan. Professor Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi tarixi” asarida bu cholg‘uning Xorazm amiri Muhammad Xorazmshoh

[7] O‘.Toshmatov, S.Turatov, “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” Toshkent 2016 y.

davrida Balx shahrida shaxsi nomalum kimsa tomonidan yasalgani haqida rivoyatni keltiradi. Afg‘on rubobi qadim zamonlardan o‘zbek xalqi orasida ayniqsa, Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan. Uning korpusi ponasimon shakldakatta va chuqur bo‘lib, yon tomonlarida o‘yiqlari bor.



Dastasi qashqar rubobiga nisbatan ancha (8-10 sm.) kalta bo‘lib, uch tomoni bir oz orqaga qayrilgan. Kosa qismi bilan dastasi yaxlit yog‘ochdan (ko‘pincha tutdan) yasaladi. Dastasi pardalarga bo‘lingan bo‘lib, uning pastki qismi kengaya borib qopqoqqa ulanib ketadi va korpusning ustini o‘yiqlarga qadar yopadi. Korpusning qolgan qismi (o‘yiqlardan keyingi qismi) ga teri qoplanadi. Asbobning umumiy uzunligi 70-80 santimetrni tashkil qiladi. Afg‘on rubobi ko‘rinishi va ijro uslubi jihatidan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. Hajmi katta, baland avjli kuylarni ijro etishda rubob dastasining davomi sifatida, rezanator qopqog‘ining ustki qismiga dastadagi asosiy 4 pardadan tashqari o‘rnashtirilgan 6,7 xaspardalar asos bo‘ladi. Afg‘on rubobida besh asosiy va diatonik tarzda sozlangan 10, 11 aks sado beruvchi torlar mavjud bo‘lib, asosiylaridan 1- 2- bilan, 3- 4- bilan, 5 - torlar kvarta oralig‘ida sozlanadi.

Dutor va tanburdan farqi, afg‘on rubobining barcha torlari ijroda keng qo‘llaniladi. Afg‘on rubobida chalish ma’lum darajada murakkab bo‘lganligi sababli uni tanbur va boshqa ayrim cholg‘ular singari deyarli mutaxassis sozandalar qo‘lida ko‘ramiz. Afg‘on rubobi boshqa ko‘pgina o‘zbek xalq cholg‘u asboblari singari 30-yillarning oxiri, 40-yillarning boshlarida A.I. Petrosyans tomonidan rekonstruksiya qilindi, ya’ni takomillashtirildi. Uning takomillashgan turida yordamchi torlar yo‘q. Korpusi ixchamlashtirilgan, dastasi uzun temperatsiyalangan to‘la

xromatik tovushqatorga ega. Pardalar esa ebonit qalamchalardan yasab o‘rnatilgan. Asbobning takomillashtirilishi ijro texnika imkoniyatlarini yaxshilashga imkon berdi. Diapazoni kengaytirildi. To‘rtta bog‘langan parda va yopishtirilgan 6-7 ta parda o‘rniga mustahkamlangan 19 ta parda o‘rnatildi. Tovushqatorga temperatsiya va xromatizatsiya joriy etildi. Uning beshta tori bo‘lib, to‘rttasi ikkitadan qo‘shaloq va beshinchisi yakka holda o‘rnatildi.

Takomillashtirilgan afg‘on rubobida hamma torlar ichakdan yoki kapron tolasidan tayyorlanadi va kvarta oralig‘ida sozlanadi. Diapazoni kichik oktava “lya” tovushidan uchinchi oktava “mi”-“fa” tovushigacha. Afg‘on rubobining mashhur ijrochilari: Tavur Jumayev, Ergash Shukrullayev, Savinov, G‘ulomqodir Ergashev, Tohir Yo‘ldoshev va boshqalarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Afg‘on rubobi transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Afg‘on rubobida ichakdan ishlangan beshta tor mavjud. Birinchi juft torlar birinchi oktavaning “lya” tovushiga (unison), ikkinchi juft torlar birinchi oktavaning “mi” tovushiga (unison), uchinchi tor esa kichik oktavaning “si” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi.[8]



Afg‘on rubobining diapozoni kichik oktavaning “si” tovushidan uchinchi oktavaning “mi” tovushigacha.



[8] O‘.Toshmatov, S.Turatov, “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” Toshkent 2016 y

TANBUR – ham noxunli mezrobli cholg‘ular turkumiga kiradi. U ko‘rsatkich barmoqqa kiyiladigan metall aralashmasidan yasalgan maxsus moslama, ya’ni noxun bilan chalinadi. Chalinganda faqat birinchi tordan foydalanilib, qolganlari qo‘shimcha sado olish uchun xizmat qiladi.

Tanbur asosan tut, o‘rik, yong‘oqqa o‘xshagan qattiq daraxtlar g‘o‘lasidan noksimon shaklda qilib o‘yib yasaladi. Kosaning ustki qismi tut daraxtidan yassi qilib yasalgan qopqoq bilan qoplanadi. Dastasi birmuncha uzun, ingichka va pardalarga bo‘lingan. Tanburning pardalari boshqa cholg‘ular pardalariga nisbatan qalinroq va balandroq qilib bog‘lanadi. Bu bog‘lanish tanbur torlarini ezib kerakli tovush hosil qilish uchun mo‘ljallangan. Tanbur ham ud soziga o‘xshab juda qadimiydir. Mashhur musiqashunos olim Forobiyning fikricha, qadimda tanburlar asosan ikki torli bo‘lgan va ayrim holatlarda uch torli tanburlar ishlatilgan. Qadim davrlarda Xuroson tanburlari va Bog‘dod tanburlari mashhur bo‘lgan. Bu tanburlar ko‘rinishi jihatidan bir-biridan farq qilgan.



Shu o‘rinda mashhur olim Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobidagi tanbur haqidagi fikrlarni aynan keltirishni lozim deb topdik. *“Burungi musiqiy kitoblarimiz tanbur so‘zini TUNBURA shaklida yozadirlar-da, aslida yunoncha so‘z ekanini so‘zlaydilar. Bu cholg‘uning chindan-da yunondan kelib – kelmaganini biz tomondan tekshirish mumkin bo‘lmadi. Biroq bu cholg‘uning sharqda juda eski bir narsa ekani ma’lumdir. Hijriy o‘ninchi asrda o‘tkan Hofiz Darvesh Aliy tomonidan tanburning burun ikki torli bo‘lgani, so‘ngra Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqiyshunosning*

unga bir tor ortdirg‘ani to‘g‘risida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrlarimizning kuchini ortdirgon bo‘ladir”.

Tanburning yaratilishi va uning taraqqiyot jarayonini dastlab Movarounnahr hamda Xurosonning musiqa bilimdonlari o‘z asarlarida ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etganlar. Masalan, musiqashunoslar Abu Nasr Forobiy, Kotibiy Xorazmiy, Ibn Sino, Ibn Zayla Isfaxoniy va boshqalar o‘z asarlarining ayrim boblari hamda fasllarida tanburga oid muhim izohlarni berganlar. Tanbur atamasining ma’nosi turli yozma manbalarda turlicha izohlangan. Jumladan, Darvesh Ali Changiy Buxoriy (XII asr Tuhfat-us-surur) ning ta’kidlashicha, tanbur yunoncha so‘z bo‘lib, “tan” – yurak, “bur” - tirnash ma’nosini anglatar ekan.

Tanbur uch xil sozlanadi:

-Birinchisi **“Rost”** mizrobi.

-Ikkinchisi **“Navo**” mizrobi. Navo maqomiga oid kuylar shu sozda ijro qilinadi.

-Uchinchisi **“Segoh”** mizrobi. Segoh, Iroq, Buzruk, Dugoh, maqomlariga oid kuylar shu sozda ijro qilinadi.

Hozirgi tanburlar to‘rt torli bo‘lib, torlari mis va latun aralashmasidan tayyorlanadi. Dastaga 16 –19 tagacha yo‘g‘on qilib ichak pardalar bog‘lanadi. Bu pardalarni ijro etiladigan asarning ladiga qarab pastga yoki yuqoriga surish mumkin. Tanbur pardalari bir necha qavat ichaklardan tayyorlanib, qalinligi sababli dastadan ancha ko‘tarilib turadi. Xuddi mana shuning o‘zi tanburning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Sozanda pardaning balandligi hisobiga torni ezish yo‘li bilan turli tovushlar hosil qila oladi. Bog‘lama pardalardan tashqari tanburning qopqoq qismiga yana to‘rtta yordamchi yog‘och parda, ya’ni xasparda o‘rnatiladi. Bu esa tanburda ijro etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tanburning ommalashuvida Ma’rufjon Toshpo‘latov, Fazliddin Shahobov, Shonazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev, Matyusuf Xarratov, Rizqi Rajabiy, Turg‘un Alimatov, Sultonxon Hakimov, Yoqub Davidov, Shobarot Tanburiy, Otavali Nuriddinov, Abdulla Umarov, Toir Qo‘ziyev, O‘ktam Rasulov va boshqa sozandalarning xizmatlari benihoyadir.

Tanbur tovush qatori diatonikdir. Uning to‘rtta tori bo‘lib, birinchi , ikkinchi va to‘rtinchi torlari katta oktavaning “sol” tovushiga, uchinchi tori

esa katta oktavaning “re”, “do” yoki “fa” tovushiga sozlanadi. U transpozitsiya qilinuvchi cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi.[9]



UD. Ijtimoiy hayot o‘z taraqqiyoti mobaynida aholining tabaqalarga bo‘linish jarayonini boshidan o‘tagani kabi musiqa san’atida ham ana shunday jarayon davom etmoqda. Uzoq tarixiy taraqqiyot mobaynida musiqiy janrlar, cholg‘ularning bir qancha turlari kashf etildi. Ana shunday cholg‘u turlaridan biri uddir. O‘tmish olimlari ud cholg‘ular ichida mukammallik darajasiga yetkazilganligini ko‘rsatib o‘tganlar. Ud sozi Osiyo xalqlarining milliy cholg‘ulari qatoridan munosib joy olgan, garchand uni forslar «Borbad», xitoyliklar «Pipa», arab xalqlari «ud» va ko‘pchilik Ovropa xalqlari «Lutnya» kabi atamalarda atagan bo‘lsalar ham ularning asosi bir, ya’ni ud (udsimon) dir.

Ud arabcha so‘z bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi turlichadir. U birinchidan yog‘ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to‘y-tomosha, xursandchilikni ifodalaydigan “iyd” iborasining ma’lum formasidir. Bu o‘rinda xushchaqchaqlik kayfiyati bag‘ishlovchi soz ma’nosida ham kelishi mumkin.

[9] O‘.Toshmatov, S.Turatov, “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” Toshkent 2016 y



Udning mukammal soz sifatida namoyon bo‘lishida uning uch xususiyati alohida ajralib turadi:

- tuzilishi (shakli, torlar miqdori, joylashishi, sozlanishi);

- imkoniyati;

-ommaviyligi.

Bu xususiyatlari xalq orasida mohir sozandalar yetishib chiqishida, musiqa ijodiyotida ustozona musiqa janrini vujudga kelishida muhim o‘rin egallaydi. Bu o‘rinda IV asr oxiri V asr boshlarida yashab ijod etgan zabardast «afsonaviy» sozanda, o‘z ijodida lahn, parda, xusravoniylar kabi qadimiy musiqiy janrlarda namunalar yaratgan Borbad faoliyatini misol qilish mumkin.

Musiqaning barcha ilmlar qatorida alohida fan sifatida shakllanishida o‘tmishda yashab ijod etgan Al Forobiy, Safiuddin Urmaviy, Al Husayniy, Ash Sheroziy, Kavkabiy kabi allomalarning xizmatlari benihoyadir. Ularning ilmiy-nazariy tadqiqodlarida ud asosiy cholg‘u sifatida xizmat qilgani alohida ta’kidlanadi. Eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar orasida Borbad qadimdan ma’lum va mashhur bo‘lsa, u iroqlik arab xalqlariga esa VIII asrda ma’lum bo‘ldi va arab musiqasini borbadda, udda birinchi bor Ibn Surayi ijro etdi. Ibn Sino davrigacha (X asrning ikkinchi yarmi XI asr boshi) “Borbad” termini ud so‘zining sinonimi sifatida ishlatildi. Buning tasdig‘i sifatida Al-Xorazmiyning (X asr) quyidagi jumlasini keltirish mumkin. ***“Borbad-bu ud. Borbad so‘zi o‘rdakning ko‘kragi ma’nosini beradi, ya’ni bar – ko‘krak, bat – o‘rdak”.*** Mahmud Qoshg‘ariyning (XI asr) “Devonu lug‘atit-turk» asarida ham Borbad so‘zi o‘rdak ko‘kragi degan ma’noni anglatishi qayd etiladi. Al-Forobiyning “Arab musiqasi,

uning qonuniyati va tarixi" asarida ***"Ud sozi intervallarni nazariy jihatdan hisoblashda xizmat qilgan"*** degan jumla bor. Demak, ud sozining mukammal soz sifatida shakllanganligini Sharq olimlari ham isbotlaganlar.

O‘rta asr fanining allomasi ash-Sheroziy hamda Jomiyning musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarida ko‘rsatilishicha, ud al-Forobiy zamonasi (X asr)gacha to‘rt torli musiqa asboblaridan bo‘lgan va torlar maxsus nomlar bilan atalgan. Eng past tovush beradigan tor – "**bamm"** (eng past), ikkinchi tor "**maslas"** (arabcha uch barobar baland), "**masna"** (arabcha ikki barobar baland), to‘rtinchi tor esa "**zir"** (baland tovush beradigan) nomlari bilan ifodalangan. Al-Forobiy o‘z zamonasi talablariga, ya'ni musiqa amaliyotidagi ehtiyojlarga asoslanib, ud torlariga **"hodd"** (eng baland tovushli) deb atalgan torni qo‘shgan va udning tovush diapazonini diatonik tovushqator nuqtayi nazaridan qariyb 4-5 pog‘onaga kengaytirgan.

Musiqaga oid nazariy risolalardan ma'lum bo‘lishicha, besh torli ud qariyb XYI asrgacha ishlatilib kelingan. Udning oltinchi, ya'ni "**muxtalif"** simi XIV-XV asrlarda paydo bo‘ldi va sozning yanada mukammallashuviga olib keldi.

Arab, Misr sozandalari ud cholg‘usi torlarini asosan do, sol, re, lya, mi (fa) tovushlariga sozlaydilar, bizda esa maqom, xalq kuylarining diapazoni kengligini hamda dutor, tanbur cholg‘ularining re tovushiga sozlanishini hisobga olib cholg‘u sozi bir oz o‘zgartirilgan. Ba'zi bir kuylarda udning 6-tori re yoki si tovushiga sozlanadi. Ud cholg‘usi nota yozuviga nisbatan bir oktava past eshitiladi, ya'ni transpozitsiya qilinadi. Yozilishi 2-oktava re tovushidan katta oktavaning mi tovushigacha, eshitilishi esa 1-oktavaning re tovushidan kontr oktavaning mi tovushigacha.[10]

[10] O‘.Toshmatov, S.Turatov, "Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi" Toshkent 2016 y



2.4. Urma va tirnab chalinadigan cholg‘ular

QONUN – Juda qadimiy cholg‘ularga mansub. Forobiyning fikricha qonun eramizning birinchi asrlarida Samarqand aholisi

o‘rtasida juda mashhur bo‘lgan.

Forobiy o‘zining “Cholg‘ular haqida” nomli kitobining “Arfa”ga taalluqli bobida arfaga yaqin cholg‘u asbobi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Safi ad-Din esa qonunning ikki xil turi mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Har bir tovush tebranish natijasida alohida tor orqali hosil qilinadi. Qonun yunoncha so‘zdan olingan. Uning tovushqator asosi bir torli tarkibda tuzilgan “Monoxord” asbobiga berilgan nomdan kelib chiqqan. Demak qadimiy “Monoxord” cholg‘u asbobi arab xalqi ijodiy amaliyotida “qonun” nomi bilan ommalashgan. Bu jarayonning ilk davri X-XI asrlarga to‘g‘ri keladi. Arab musiqashunos olimlarining bayon etishlaricha, taxminan XIV asrlarda yaratilgan qonun cholg‘usi Ussuriya poytaxtidan topilgan. O‘sha davrlarda bu cholg‘uning chizma nusxasi fil suyagidan qilingan qutilarga chizilgan. Unga binoan qadimdagi qonun turi turli shakllarga bo‘lingandir. Shu davrda qonun cholg‘usining uzunchoq shakli, yoysimon nusxalari, to‘rtburchak shakllari amaliyotda qo‘llanilgan. Bu cholg‘ular shaklan har xil bo‘lsada, uslubiy jihatlari, ovoz va ijrochilik imkoniyatlari bir-biriga juda o‘xshashdir. Qonun turli xalqlarda turlicha atalsa-da, unig asosi bir-biriga juda yaqin. Masalan: arab, turk va ozarbayjon xalqlarida “qonun”, uyg‘urlarda “qalun”, armanlarda “kanon”, slavyanlarda “gusli”, karallarda “kantelli”, estonlarda “kanelli”, latishlarda “kokles”, yaponlarda “kato”, koreyslarda “kiyagin” nomlari bilan ataladi. Bu cholg‘ular qonun va qonunsimonlar toifasiga kiradi. Ular qadimiy

Nusxa, Qonun, Santur, Magna kabi cholg‘ulardan tarqalganligi manbalarda keltirilgan. Buyuk olim Farmerning Britaniya muzeyida saqlanayotgan qonunlar haqidagi risolasida bu cholg‘u olxo‘ri daraxti yog‘ochidan, uzum tanasidan yasalgani va uzunligi pastki, ya’ni yo‘g‘on tovush beradigan tomoni 81 santimetr, qarama-qarshi tomoni 40,5 santimetr ekanligi yozilgan. O‘n uchta uchtadan iborat tori bo‘lgan. Qonun ikki qo‘l barmoqlari yordamida chalingan. Bu cholg‘u asosan Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari sozi hisoblanib, Turkiya, Armaniston, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarida rivojlangan. O‘rta Osiyo xalqlari orasida, xususan, Buxoroda 1917 - yilgacha keng tarqalgan. Hozirgi qonunlar trapetsiyasimon yassi yog‘och quti shaklida yasalmoqda. Qopqog‘i ham yog‘ochdan yasalib, o‘ng tomonining ozgina qismi, ya’ni xarrak joylashgan joyi teri bilan qoplanadi. 24 – 25 ta uchtalik ichak torlari uch oktavadan kengroq (do-re kichik oktavadan fa diyez uchinchi oktavagacha) diapazonga ega. Quloqlari yaqinida torlar ostida har bir tovushni osongina yarim ton, bir ton, ba’zilarini esa bir yarim tongacha o‘zgartirish imkoniyatini beruvchi temir moslamasi bo‘ladi.



Qonun ijrochilik an’anasi xalqimiz merosida azal-azaldan mavjud bo‘lgan. Shu bois qonunni qayta tiklash unga bo‘lgan qiziqish, e’tibor samaralari ekanligini namoyish etadi. Ayni paytga kelib qonun cholg‘usini o‘rganish ta’lim jarayonining barcha tizimlarida yo‘lga qo‘yildi. Qonun

cholg‘usi ijrosining qayta tiklanishida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdurahmon Xoltojiyevning xizmatlari benihoyadir.[11]

Qonun ijrosi o‘ng va chap qo‘lning ko‘rsatkich barmoqlariga taqilgan maxsus noxun (tirnoq) bilan tirnab chalish orqali amalga oshiriladi.

Qonunning diapazoni kichik oktavaning “re” tovushidan uchinchi oktavaning “fa” tovushigacha.



CHANG – juda qadimiy cholg‘udir. Bu haqda uzoq o‘tmishda yashab, o‘lmas asarlarni yozib qoldirgan olimlar va shoirlar merosida yetarlicha ma’lumotlar mavjud.

Jumladan, Abu Nasr al-Forobiy (873 – 951) “Kitob al-musiqiy al-Kabr” (Musiqa haqida katta kitob) risolasida cholg‘u asboblariga, xususan chang, rubob, nay kabi sozlarga alohida o‘rin ajratadi. Forobiy chang cholg‘usining jo‘r bo‘lish xususiyati haqida eslatib o‘tar ekan, bu sozning har xil adabiy majlislar va tantanavor marosimlarda cholg‘u ansambli tuzilmalarida muvaffaqiyatli qo‘llanilganini mamnuniyat bilan qayd qiladi. Al Forobiy yaratgan asarlar uning zamondoshlari va undan keyingi davr olimlarining musiqa ilmi nazariyasi bo‘yicha ilgari surilgan fikrlari va risolalari uchun asos bo‘ldi. Ibn Sino (980-1037), Umar Xayyom (1040–1123), Ma’sur Sheroziy (1236–1310), Muhammad al-Amuliy (taxminan 1354-1355 yil vafot etgan), Alisher Navoiy (1441-1501), Al-Husayniy (XV asr), Mavlono Kavkabiy hamda XVIII asr mashhur sozandasi va musiqiy nazariyotchisi Darvesh Ali Changiy soz va sozandalarning ijrochilik san’atini o‘z risolalarida ta’rif va tavsif etadilar. Yuqorida nomi tilga olingan yirik musiqashunos olim, mashhur changchi, bastakor va

[11] O‘.Toshmatov, S.Turatov, “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” Toshkent 2016 y

hofiz Darvesh Ali Changiy qalamiga mansub «Risolai-musiqiy» kitobida chang sozi va sozandalari alohida qayd etiladi.

Olim yashagan davrda (XVII asr) changda 26 ta tor bo‘lib, yettita parda mavjudligi diqqatga sazovordir. Changda o‘n ikki maqomning hammasini mukammal ijro eta bilish Darvesh Ali yashagan o‘sha davrda ham sozandaning yuqori darajadagi mahoratini namoyish etuvchi omillardan biri hisoblangan. Olim o‘z risolasida cholg‘uchilik san’atida dong taratgan Mavlono Mirek Changiy Buxoriy, Mavlono Zaynulobiddin – Rumiy kabi ustozlarni hurmat bilan tilga oladi.

Asrimizning boshlarida o‘lkamizning ba’zi shaharlarida cholg‘u sozi ustalari barcha asboblar qatori chang sozining tuzilishi va ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish, sifatini yaxshilash yo‘lida ma’lum darajada izlanganlar. Xorazmda Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar, Farg‘onada Usta Masaid Marg‘iloniy, Usta Olim Komilov, Namanganda Usta Ro‘zimatxon Isoboyev, Toshkentda Usta Usmon Zuparov va boshqalar ana shular jumlasidandir.

Eski chang tovushqatori diatonik bo‘lib, diapazoni uncha keng bo‘lmagan, ya’ni “lya-bemol” katta oktavadan “re-bemol” ikkinchi oktavagacha edi. Xalq cholg‘uchilarining ana shu an’anaviy changi asosida to‘liq xromatik tovushlarga ega bo‘lgan yangi chang asbobi 1938-yilda yaratildi. Uning diapazoni “do” birinchi oktavadan “re diyez” uchinchi oktavagacha bo‘lgan tovushlarni o‘z ichiga oladi. Bu kiritilgan yangiliklar natijasida chang cholg‘usida o‘zbek kuylaridan tashqari barcha xalqlarning musiqa asarlarini va kompozitorlar ijodini o‘zlashtirishga imkoniyat yaratildi. Chang chaluvchi sozandaga qulaylik yaratish hamda ijro erkinligini ta’minlash maqsadida changga yog‘ochdan uchta maxsus 82 santimetrlik oyoqlar o‘rnatildi. Ijro vaqtida chang sadolarini vaqti – vaqti bilan so‘ndirib turish uchun pedal mexanizmi bilan boshqariladigan dempfer qurilmasining o‘rnatilishi natijasida chaqqon texnik mahorat bilan ijro etiladigan asarlarning sof sadolanishiga puxta zamin yaratildi. Changda yaxshi tovush chiqish–cholg‘uning sifatiga bog‘liqdir, shuningdek, uni sozlashda cholg‘u torlarining bir xilligiga va quloqlarining tengligiga e’tiborni qaratish lozim. Changda yaxshi musiqa ijro etishning muhim shartlaridan yana biri, bu cholg‘u oldida o‘tirish holatidir.

Changning balandligi o‘tirgan ijrochining qo‘l tirsagidan oshmasligi kerak. Stulning balandligi va chang bilan oradagi masofa ijrochining bo‘yi va qo‘llari uzunligiga mos bo‘lishi kerak. Pedaldan foydalanish texnikasi tovush chiqarishni yaxshilash, tozalash, kuyni yaxshiroq ijro etish, arpedjio va ikkitalik notalarni ijro etish imkoniyatini beradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tovush jarangining tembri, cho‘plarning torlarga urilgan zarblariga bog‘liq. To‘liq va quyuq tovush chiqarish uchun cho‘plar bilan xarraklar ustiga o‘rnatilgan chang torlari orasidagi masofa kamida 3-4 sm tepalikdan urilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Urma zarb uslubi changda tovush chiqarishning asosiy ijrochilik uslubidir. Cho‘plar bilan torlarga urilganda chuqur, to‘la tovush chiqishi kerak. Zarb qanchalik erkin bo‘lsa, torning jarangi shunchalik yorqin bo‘ladi.



Chang cholg‘usining ommalashuvida mashhur changchilar: Fozil Xarratov, Faxriddin Sodiqov, Baxtiyor Aliyev, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne’matov, Tohir Sobirov, Temir Mahmudov, Fazilat Shukurova, Tilash Xo‘jamberdiyev va boshqalarning xizmatlari benihoyadir.

Chang cholg‘usi diapazoni quyidagicha:



DUTOR – O‘zbekistonda keng tarqalgan cholg‘ulardan biri. Dutorda ikkita ichak yoki ipakdan qilingan ip bo‘lib, bir yarim oktava diapazonga egadir. Dutor asosan noksimon shaklda yasaladi. Tasviriy san’at yodgorliklari va yozma tarixiy manbalar o‘zbek xalq cholg‘ularini, jumladan dutorni qadimdan ijro etilib kelinishiga guvohlik beradi. Abu-Nasr Muhammad Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy va boshqa olimlar o‘z asarlarida dutor haqida ancha to‘liq ma’lumotlarni berib o‘tganlar. Dutor ikki qismdan (dasta va kosa) iborat bo‘lib, bu qismlarni birlashtiruvchi qismi “bo‘g‘iz” deb ataladi. Dutor kosasi o‘yma yoki qobirg‘achalarning birlashtirilishidan yasalishi mumkin. O‘yma dutor Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo‘llanilib, bir bo‘lak tut yog‘ochidan o‘yib ishlanadi. Qobirg‘ali dutor ham tut yog‘ochidan ishlanib, 8-10 bo‘lak yupqa taxtacha egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog‘ochidan tayyorlanadi. Odatda, dutor yasaladigan tut yog‘ochi soyada quritiladi. Dutor dastasi olma yog‘ochidan qilinadi va unga 13–14 ta ichak parda bog‘lanadi. Cholg‘uning umumiy uzunligi 1200–1300 millimetrni tashkil qiladi. Ayrim joylarda 750–800 millimetrli dutorlar ham uchraydi. Ipakdan qilingan ikki tor kvarta (o‘rta parda sozi), kvinta (bosh parda sozi), unison (qo‘sh parda sozi) va oktava oraliqlariga sozlanadi. Bu sozlardan ko‘proq qo‘llaniladigani “Munojot” (kvinta) va “Tanovor” (kvarta) sozlaridir. Bu sozlar aniq bir balandlikda bo‘lmay, ijrochi va ashulachi xohishiga binoan turlicha balandlikda sozlanishi mumkin.

Dutor ansamblda va yakka soz sifatida qo‘llaniladi. Ovozi past, mayin bo‘lgani sababli ko‘proq yakkanavoz tarzida ham qo‘llaniladi. Shuning uchun ham maxsus “Rohat”, “To‘rg‘ay”, “Dutor bayoti” kabi dutorda yakka ijro etish uchun mo‘ljallangan qator kuylar mavjud.



Dutor transpozitsiya qilinadigan cholg‘ular guruhiga mansub bo‘lib, ijroda yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. birinchi tori birinchi oktavaning “re” tovushiga, ikkinchi tori kichik oktavaning “lya” tovushiga sof kvarta oralig‘ida sozlanadi.



Dutor altning diapazoni birinchi oktavaning “mi” tovushidan uchinchi oktavaning “lya” tovushigacha.

2.5. Kamonli cholg‘ular

G‘IJJAK – kamonli cholg‘ular turiga kiradi. Ko‘rinishi va chalinishi jihatdan boshqa o‘zbek xalq cholg‘ularidan farq qiladi. G‘ijjak juda qadimiy cholg‘ulardan hisoblanadi. Ayrim manbalar orqali bizga yetib kelgan ma’lumotlarga qaraganda, XV asr Samarqand rassomchilik maktabida ishlangan miniatyuralarda tasvirlangan dastlabki g‘ijjaklar ikki simli bo‘lganligi ma’lum. Kosasi yarim shar shaklida, dastasi uzun, ot dumi tortilgan kamon bilan chalingan. Dasta yuqoriga tomon yo‘g‘onlashib borgan. Keyinchalik g‘ijjakning ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida uchinchi tor qo‘shilgan. Bu haqda mashhur olim Fitrat o‘zining “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli kitobida shunday yozadi: ***“Bu ham yoy bilan chalinadir. Chanog‘i Hindiston***

javzidir. Tut yog‘ochidan, ma’dandan ham yasalsa bo‘ladi. Sopi 40 – 42 santimetr qadar uzunlikda bir yog‘ochdir. Chanoqdan tuban 20-23 santimetr qadar uzunlikda bir temir quyrug‘i bor. Chanog‘i qalin teri bilan qoplanadir. Xarrak butun cholg‘ularga teskari, chanoqning yuqori tomoniga qo‘yiladir, tori uchtadir”. [12]



Uch torli g‘ijjak diapazoni bir yarim oktavaga yaqin bo‘lgan. (taxminan birinchi oktava “mi” bemoldan boshlab). Boburning ma’lumotlariga qaraganda, g‘ijjakning uchinchi tori XV asrda shuhrat qozongan ijrochi va bastakor Qul Muhammad Udiy tomonidan joriy etilgan. Uch torli g‘ijjaklar ham kvarta oralig‘ida sozlangan. Bu g‘ijjaklar XX asr boshlarigacha qo‘llanilib kelingan. Keyinchalik g‘ijjakning diapazonini kengaytirish maqsadida to‘rtinchi, ya’ni sol tori qo‘shildi. Sozlar kvinta oralig‘iga o‘tkazilgan. Bu cholg‘u o‘zbeklardan tashqari Markaziy Osiyo va Kavkaz xalqlari o‘rtasida ham keng tarqalgan. G‘ijjak asosan tut, yong‘oq va o‘rik daraxtlaridan yasaladi. Asosan baliq terisi

[12] S.Jumayev “Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi” Toshkent 2016 y.

bilan qoplanadi. Hozirda yoysimon kamon o‘rniga ijro imkoniyatlari kengroq bo‘lgan skripka cholg‘usi smichogi ishlatilmoqda. Sozlanishi:

1-tor ikkinchi oktavaning “mi” tovushiga, 2-tor birinchi oktavaning “lya” tovushiga, 3-tor birinchi oktavaning “re” tovushiga, 4-tor kichik oktavaning “sol” tovushiga sozlanadi.

Ishlatiladigan diapazoni kichik oktavaning “sol” tovushidan, to‘rtinchi oktavaning “lya” tovushigacha. Hozirda xalq ijrochilari ochiq simlarni kamroq ishlatish va milliy bezak, qochirim, nolalarning qo‘llanilishini osonlashtirish maqsadida g‘ijjak chalishda kvarta sozidan ko‘proq foydalanadilar.

Mashhur g‘ijjakchi sozandalardan To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, G‘anijon Toshmatov, Doni Zokirov, G‘ulomjon Hojiqulov, O‘lmas Rasulov, Murod Toshmuhamedov, Abduhoshim Ismoilov, Qahramon Komilov, Tursunboy Jo‘rayev, Ahmadjon Dadayev, O‘tkir Qodirov, Salohiddin Azizboyev va boshqalar el orasida mashhur.

G‘ijjak – to‘rtta tordan iborat cholg‘u bo‘lib, birinchi tori ikkinchi oktavaning “mi” tovushiga, ikkinchi tori birinchi oktavaning “lya” tovushiga, uchinchi tori birinchi oktava ning “re” tovushiga, to‘rtinchi tori kichik oktava ning “sol” tovushiga sof kvinta oralig‘ida sozlanadi.



G‘ijjakning diapozoni kichik oktava ning “sol” tovushidan to‘rtinchi oktavaning “lya” tovushigacha.



SATO – tanburning bir ko‘rinishidir. Avvalda oddiy tanburdan sato sifatida foydalanilgan bo‘lsa, hozirda tanburning biroz kattalashtirilgan va ko‘rinishi biroz o‘zgartirilgan turidan foydalanilmoqda. Sato ijrosida noxun o‘rniga g‘ijjak va skripka cholg‘ularini ijro etishda ishlatiladigan kamondan foydalaniladi.

Satoning tovushi juda mayin va ulug‘vordir. Unda asosan mungli va og‘ir kuylar ijro etiladi. Sato dutor, tanbur cholg‘ulari bilan birgalikda va alohida holda yaxshi eshitiladi. Maxsus ovoz kuchaytirish

moslamalarisiz katta ansambl va orkestrlarda ishlatilishi kutilgan natijani bermaydi. Milliy cholg‘ularimiz qatoridan joy olgan sato kamon bilan ijro qilinadigan cholg‘ulardan hisoblanadi. Ammo sato noxun bilan ijro etilsa, tanburga aylanadi.



Satoning to‘rtta tori bor, torlar kuylar amrida sozlanadi. Satoning tovushi inson tovushiga yaqin. Satodan chiqqan navo xuddi so‘zsiz qo‘shiqday yangraydi.

Sato cholg‘usi ijrochilari ko‘pchilikni tashkil etmaydi. 1940-1950 - yillarda Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrining sozandasi A.Barayev shu cholg‘u ijrosi bo‘yicha mashhur bo‘lgan bo‘lsa, satoni ommalashtirgan, elga manzur qilgan mashhur sozanda Turg‘un Alimatovdir. Sato ko‘hna cholg‘ular qatoriga kirib, uning qayta tiklanishi musiqa olamida katta yangilik bo‘ldi.[13]

[13] S.Jumayev “Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi” Toshkent 2016 y.

Satoning diapazoni ham tanbur bilan bir xil bo‘ladi.

yozilishi



eshitilishi



Savol va topshiriqlar:

1. Sozandalar ansambli tarkibiga kiruvchi milliy cholg‘ularni sanab o‘ting.
2. Urma zarbli cholg‘ularga qaysi cholg‘ular kiradi?
3. Urma torli cholg‘ularni sanab o‘ting.
4. Damli cholg‘ularning kelib chiqish tarixi haqida gaprib bering.
5. Nay cholg‘usining mashhur sozandalari kimlar bo‘lgan?
6. Mezrobli cholg‘ularni birin-ketinligi bilan sanab o‘ting.
7. O‘zingiz chaladigan cholg‘u tarixi haqida gapring.

III BOB.
SOZANDALAR ANSAMBLI UCHUN ASARLAR

Navro'z sabo

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev ansambl
uchun moslashtirgan

Allegro




mf
f
f
f (mf)
1.
2.
rit.

Buhorocha

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan.



8 TAKT DOIRA USULI




1.
f (mp)
2.
f
1.
2.

Bahor nashidasi

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan

Andante




1.
2.
rit.

Gulbahor

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan.




f
rit.

Davra

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan

Andante



Allegretto






1.
2.
1.
2.
1.
2.

Ko'nglim na'masi

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan

Andante




1.
2.


1.
rit.
2.

Nilufar

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan

Moderato






1.
2.

Nozanin

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan.

Andante




Allegro
2.
f



Tavois

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan




1.
2.
rit.

Erkalab

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan




Allegretto
rit.


1.
rit.
2.

Sabo

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan

Andante




Allegro



O'zbekiston yulduzlari

B.Aliyev musiqasi
K.Mirzayev notaga olgan




Allegretto M=130
1.
2.
1.
2.


1.
2.



Hayol

B.Aliyev musiqasi
Sh.Almatov notaga olgan.




Allegretto
f
f


f


f


f

Turkiston

B.Aliyev musiqasi.
Sh.Almatov notaga olgan.

Allegretto




f


mf
1.
2.
rit.
f

Zebo

B.Aliyev musiqasi.
Sh.Almatov notaga olgan.




f
mf
f
mf
f
f
mf
mf


mf
f
mf
mf
f
f
mf
f
1.
2.
mf
f

Dasta gul

B.Aliyev musiqasi.
Sh.Almatov notaga olgan.




f
mf
Allegro
f


f
mf
f

Ajam taronalari I

Moderato

O'zbek xalq kuyi




f
mf
mp


f
mf

Ajam taronasi II




rit.

Mushkiloti Dugoh




rit.
p
mf


f
rit.


f
f


rit.
p

Nasri Segoh

Allegretto

O'zbek xalq kuyi




f


ff
f
mf

Norim-norim

O'zbek xalq kuyi

Allegretto






1.
2.

Aliqambar

Xorazm xalq kuyi






cresc.
f

Tarji Buzruk

1-xona



2-xona













3-xona





Bozgo'y



4-xona









Bozgo'y







5-xona





Bozgo'y







6-xona









7-xona







Bozgo'y



8-xona



Bozgo'y

M.M♩=60

Bayot Muxammasi

Navo maqomidan

1 xona



Bozgo'y


2 xona
Bozgo'y
3 xona


4 xona
Bozgo'y


5 xona
6 xona
7 xona


Bozgo'y
rit..

Navrozi ajam

O'zbek xalq kuyi











GLOSSARIY

Allegro vivace	**allegro vivache**	**jivo**	**tez, jonli**
Presto	Presto	bistro	tez
Prestissimo	Prestissimo	ochen bistro	juda tez
Vivo	Vivo	jivo	jonli, tez
Vivace	Vivache	ochen jivo	o‘ta jonli, tez
Veloce	Veloche	skoro	tez
Allegro	Allegro	ojivlenno	tez, shitob ila
Allegro maestose	allegro mayestoza	skoro, velichestvenno	tez, tantanavor
Allegro con moto	allegro kon moto	skoro, s dvijeniyem	allegrodan tez, xarakat bilan
Allegro agitato	allegro adjitato	skoro, vzvolnovanno	tez, hayajonli
Allegro con brio	allegro kon brio	skoro, s jarom	tez, g‘ayrat bilan
Allegro con fuaco	allegro kon fuako	skoro, s ognem	tez, jo‘shqinlik bilan
Allegro brillante	allegro brillyante	skoro, s bleskom, blestyashe	tez, qoyilmaqom
Allegro furiose	allegro furyozo	skoro, yarostno	tez, shiddat bilan
Andante	Andante	ne spesha	shoshmay, osoyishta ijro

			qilinadigan sur’at
Andantino	Andantino	nemnogo skoreye chem andante	andantadan tezroq, o‘rtacha tezlikdagi sur’at
Allergo-moderato	allergo-moderato	umerenno skoro	o‘rtacha (xiylagina) tez
Allegretto	Allegretto	dovolno skoro, podvijno	xiyla tez, serharakatlik bilan
Allegro non treppo	allegro non troppo	ne slishkom skoro	shoshilmay, qoniqarli tezlikda
Commado	Kommado	udobno, spokoyno	tinch, osoyishta, bemalol
Moderato	Moderato	umerenno	o‘rtacha, mo‘tadil sur’at
Sostenuto	Sostenuto	sderjanno	vazminlik, bosqinlik bilan
Adagio	Adajio	medlenno	sekin, tinch, og‘ir
Adagio assai	adajio assay	vesma medlenno	juda sekin
Grave	Grave	strogo medlenno, tyajelo	qat’iy, og‘ir, sekin
Lento	Lento	medlenno	sokin, cho‘zib
Largo	Lyargo	shiroko	yayrab, keng
Larghetto	Lyargetto	nemnogo skoreye chem lyargo	lyargodan sal tezroq, vazmin sur’at

Largo assai	lyargo assay	vesma shiroko	juda yayrab, keng
A tempo	a tempo (tempo-prima)	pervonachalniy temp	dastlabki sur’at
Alla breve	allya breve	v korotkoy monere, ukorochenno	qisqartirilgan, to‘rt chorakli o‘lchovli taktni ikki o‘lchovda taktlashni ko‘rsatadi
Allargande	allyargando	rasshiryaya, zamedlyaya	yayrabroq, vazminlashtirib ijro etish
Ad libitum	ad libitum	po jelaniyu	istagan sur’atda, xohishga qarab
Animate	Animato	voodushevlenno, ojivlenno	shod-xurramlik bilan
Agitate	Adjitato	vozbujdenno, vzvolnovanno	hayajonlanib, to‘lqinlanib
All marcia	allya marchya	v duxe marsha	marsh ruhida
Appesienate	appassyonato	otrastno	kuchli extiros bilan
Amoroso (con amare)	amorozo (kon amare)	lyubovno	mehr-muhabbat bilan, oshiqona
Accelerando	Achchelerando	uskoryaya	sur’atni tobora tezlata borib
Calando	kalando (qisq.kol.)	Zamedlyaya, oslabevaya	sur’at sekinlashib, tovush pasaya

			boradi
Cantabile	kantabile	pevuche	yoqimli, xonish
Son grasia	kon gratsia	s gratsiyey	nozik xarakat, latofat, zebolik bilan
Con dolore	kon dolore	s grustyu	qayg‘uli
Con spirito	kon spirito	s chustvom	ixlos bilan
Capriccioso	Kaprichchiozo	kaprizno	tantiqlik, nozu karashma bilan
Doloroso	dolorozo	s bolyu, s toskoy	dardli, g‘amgin
Dolente	Dolente	grustno, jalobno	g‘amgin, mungli ovozda
Dolce	Dolche	nejno	mayin, muloyim
Eledante	Elegante	elegantno	orastalik, zebolik bilan
Energico	Energiko	energichno	g‘ayrat bilan, qat’iy
Eroico	Eroiko	geroicheski	qahramonona, mardonavor
Espressive (eapr.)	ekspressivo	virazitelno	ifodali, ma’nodor qilib
Funebre	Funebre	skorono, pechalno	qayg‘urib, motamsaro
Grandioso	grandiozo	velichestvenno	ulug‘vor, tantanavor
Giocoso	djookozo	shutlivo, igrovo	hazilomuz, o‘ynoqi
Imperioso	imperyozo	povelitelno	amirona, shohona

			ishora bilan
Listesse tempo	listesso tempo	totje temp	o‘sha sur’at
Lacrimoso	lakrimozo	slezno	g‘amgin, marsiyaomuz
Molto	Molto	ochen	juda
Morendo	morendo	zamiraya	iztirobda (ovozning titrab pasaya borishi)
Marcialo	marchalo	legko	yengil
Marsiale	mars’ale	voinstvenno	jangari, larzakor
Mesto	Mesto	pechalno	mayus (g‘amgin)
Marcato	Markato	podcherkivaya	ta’kidlab, urg‘u berib
Meno mosso	meno mosso	meneye podvijno	bir oz bo‘shashib
Piu mosso	pyu mosso	boleye podvijno	xarakatchanroq (sur’atning tezlashishi)
Pesante	Pezante	tyajelo, gruzno	vazmin, salmoqli
Poko a poko	poko a poko	malo po malo	asta-sekin
Rallentando (rall.)	rallentando	zamedlyaya	sekinlata borish
Riselute (risol.)	rizolyuto	reshitelno	dadil
Ritardando (ritart.)	ritardando	zapazdivaya	sur’atning sustlasha va og‘irlasha borishi

Ritenute (rit.)	Ritenuto	zamedlyaya, sderjivaya	sekinlata borish
Slargande	slargando	zamedlyaya, rasshiryaya, usilivaya	sur’atni sekinlata borish va tovushni kuchlantira, kengaytira borish
Smorzande	smorsando	Zamedleniye, osobleniye	tovushni pasaytira borish, ijroni sekinlatish
Sonore	sonore	evuchno	yangroq, jarangdor
Spirituoso	spirituozo	oduxotvorenno	ruhlanib, jo‘shqinlik bilan
Stringendo	strinjendo	gonya (sjimaya)	quvlagannamo
Scherzando	skersando	shutlivo	hazilomuz
Scherzoso	skersozo	shutlivo	hazilomuz, askiyaomiz
Tempestoso	tempestozo	burno	suronli, jo‘shib
Tempo rubato	tempo rubato	svobodniy temp	erkin sur’at
Tenebroso	tenebrozo	mrachno, tainsivenno	dardli, sirli ravishda
Tenero	tenero	nejno	muloyim

pp – pianissimo (pianissimo) – juda past;

p – piano (piano) – past;

mp – mezzo piano (metsso piano) – o‘rtacha past, pianoga nisbatan biroz kuchliroq;

mf – mezzo forte (metsso forte) – o‘rtacha kuchli, metsso pianoga nisbatan biroz kuchliroq;

f – forte (forte) – kuchli;

ff – fortissimo (fortissimo) – juda kuchli;

cresc., crescendo (kreshendo) yoki – (chizma shakli) belgisi asta–sekin tovushni kuchaytirib borishni ko‘rsatadi.

dim., diminuendo (diminuendo) yoki (chizma shakli) belgisi – tovushni asta-sekin pasaytirib borishni ko‘rsatadi.

ppp (piano-pianissimo yoki pianissisimo) – judayam past;.

fff (forte-fortissimo yoki fortissisimo) – judayam kuchli;

sf – sforzando (sforsando) belgisi biror-bir nota yoki akkordni keskin zarb bilan ajratib ijro etilishini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi 03.08.2017 y.

2. Akbarov I. O‘zbek xalq musiqasi. — Toshkent: 1959.

3. Belyayev V.M. Narodniye instrumenti Uzbekistana.: — Moskva, 1933.

4. Karomatov F. O‘zbek cholg‘u musiqasi. — Toshkent: 1971.

5. Nurmatov Xamidulla. Qashqar rubobi . — Toshkent: 2003.

6. Rasultoyev J.K. O‘zbek dutor ijrochiligi. — Toshkent.: 1997.

7. Usmonov Qobil. Boshlang‘ich rubob darsligi . — Toshkent.: 1975.

8. Feruza Asqar. Musiqa va inson ma’naviyati. — Toshkent.: 2003.

9. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi . — Toshkent.: 1993.

10. O‘.Toshmatov, S.Turatov “Ko‘hna cholg‘ular ijrochiligi” Toshkent 2016 y.

11. Qodirov Rauf. Musiqa pedagogikasi. — Toshkent.: 2011.

12. Qosimov Rufatilla. An’anaviy tanbur ijrochiligi. — Toshkent.: 2002.

13. S.Jumayev “Milliy cholg‘ular tarixi va evolyutsiyasi” Toshkent 2016 y.

14. Rajabiy Y. “O‘zbek xalq musiqasi” I-IV- jiltlari. — Toshkent.: 1955

15.Rajabiy I. “Maqomlar masalasiga doir”. — Toshkent.:1963.

16. Taxalov S. “Afg‘on rubobini chalishga o‘rgatish metodtkasi asoslari”. — Toshent.: 1983.

17. Umarov A. “Tanbur navolari”. — Toshkent.: 1995.

18. Qosimov R. “Rubob navolari”. — Toshkent.:1993.

MUNDARIJA

Kirish……..…….... 3

I Bob. Sozandalar ansambllari va ularning turlari

1.1. Katta ansambl……..……... 15

1.2. Maqom ansambli …….……. 17

1.3. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan “Bahor” raqs ansambli.… 19

1.4. “Lazgi” ashula va raqs ansambli…..…….. 22

1.5. “Dutorchi qizlar” ansambli…….…... 24

II BOB. Ansambl tarkibiga kiruvchi cholg‘ular

2.1. Urma musiqiy cholg‘ular…….…….. 27

2.2. Damli (puflab chalinadigan) cholg‘ular……..……. 28

2.3. Noxunli mezrobli cholg‘ular……..….. 31

2.4. Urma va tirnab chalinadigan cholg‘ular……..…. 41

2.5. Kamonli cholg‘ular…… 48

III BOB. Sozandalar ansambli uchun asarlar

Navro‘z sabo……..……..... 53

Buhorocha……. 55

Bahor nashidasi…… 58

Gulbahor… ……..... 60

Davra.....…….……. 62

Ko‘nglim na’masi ……..... 65

Nilufar..... 68

Nozanin 71

Tavois.....…… 74

Erkalab 76

Sabo ……. 79
O‘zbekiston yulduzlari..... 82
Hayol……..... 86
Turkiston……..... 91
Zebo……. 94
Dasta gul……..……... 97
Ajam taronalari I…….…… 100
Ajam taronalari II…… 103
Mushkiloti Dugoh…… 105
Nasri Segoh…….. 110
Norim-norim……. 113
Aliqambar……. 116
Tarji Buzruk……. 119
Bayot Muxammasi…… 123
Navrozi ajam…… 128
Glossariy 133
Foydalanilgan adabiyotlar 137

KOMILJON MIRZAYEV

SOZANDALAR ANSAMBLI

o‘quv qo‘llanma

«Navro‘z» nashriyoti
Nashriyot litsenziyasi № AI 170. 23.12.2009
Nashriyot manzili: Toshkent sh. AmirTemur ko‘chasi, 19 -uy.

Bosishga ruhsat etildi 21.02.2020 y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/1
Times garniturasi. Bosma tobog‘i 16. Nashr hisob tabog‘i 9,25.
Adadi 100 d. Ofset qog‘oz. Buyurtma № 16
«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etilgan.
100170, Toshkent sh. Siolkovskiy ko‘chasi, 356-uy.